

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

SULAYMONOVA NIGORA

ARAB TILI

(I qism)

USLUBIY QO‘LLANMA

Toshkent – 2024

Taqrizchilar

Muhiddinova Dilafruz *Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent.*

Rashidova Nargiza *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Xorijiy tillar kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

Mazkur uslubiy qo'llanma 60230100 – Filologiya va tillar o'qitish, 60230600 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti, 60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili, 60230600 – Noshirlik ishi ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, u mazkur yo'nalishlardagi “Sharq tillari (Arab tili)”, “Ikkinchi chet tili (Arab tili)” fanlari sillabusida tayyorlangan hamda sillabusga kiritilgan barcha mavzularni qamrab olgan. Unda arab tili grammatikasiga doir qonun-qoidalar qisqa va lo'nda qilib berilgan. Mavzularni tushuntirishda vizuallikni ta'minlash maqsadida zamonaviy dasturlardan unumli foydalanilgan. Har bir mavzudan keyin uni mustahkamlash maqsadida turli metodlarga asoslangan mashq va topshiriqlar berilgan.

Qo'llanmadan arab tili ikkinchi chet tili sifatida o'qitiladigan yo'nalishlar talabalari, shuningdek, arab tiliga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin. Mazkur qo'llanma arab tilidan dars beruvchi professor-o'qituvchilar uchun ham qo'shimcha adabiyot sifatida xizmat qiladi.

Mazkur uslubiy qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Uslubiy kengashining 2024-yil 30-mart 8-sonli yig'ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

MUQADDIMA

Jahon miqyosida kechayotgan globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari fan va texnika, texnologiyalarni jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu tendensiya, birinchi navbatda, mutaxassislardan xorijiy tillarni bilishni talab qiladi. Shuning uchun ham bugungi kun talabadan o'z ona tilidan tashqari bir necha xorijiy tillarni mukammal bilishni taqozo etmoqda. Yoshlar o'rtasida xorijiy tillar qatori, sharq tillarini, xususan, arab tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib borayapti. Bu esa, o'z navbatida, arab tili bo'yicha zamonaviy darsliklar, o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalarning yangi avlodlarini yaratish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

Hozirgi kunda arab tili bo'yicha mavjud darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, asosan arab tili birinchi chet tili sifatida o'qitiladigan oliy ta'lim muassasalari talabalariga mo'ljallangan. Arab tili ikkinchi chet tili sifatida o'qitiladigan yo'nalishlarda darslik va qo'llanmalarning tanqisligi kuzatilmoqda. Mazkur uslubiy qo'llanma aynan shu tanqislikni muayyan darajada bartaraf etish maqsadida tayyorlangan. Qo'llanmada arab tili ikkinchi chet tili sifatida o'qitiladigan yo'nalishlar sillabusiga kiritilgan barcha mavzular qamrab olingan.

Qo'llanmada arab tili bo'yicha shu kungacha mavjud bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarga asoslangan holda arab tili grammatikasiga doir qonun-qoidalar bayon etilgan. Mavzularni tushuntirishda vizuallikni ta'minlash maqsadida zamonaviy dasturlardan unumli foydalanilgan. Har bir mavzudan keyin uni mustahkamlash maqsadida turli metodlarga asoslangan mashq va topshiriqlar berilgan. Topshiriq va mashqlarning turli-tumanligi talabalarning arab tili borasidagi nazariy bilimlarini yanada mustahkamlash hamda amaliy malaka va ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Mazkur qo'llanma arab tilidan dars beruvchi professor-o'qituvchilar uchun ham qo'shimcha adabiyot sifatida xizmat qilishi mumkin.

1-DARS

ARAB ALIFBOSI

Arab alifbosida **28 ta harf** bo'lib, ular quyidagi tartibga ega:

1.	Ali:f	ا	
2.	Ba:	ب	[b]
3.	Ta:	ت	[t]
4.	Sa:	ث	[s]
5.	Ji:m	ج	[j]
6.	Ha:	ح	[h]
7.	Xa:	خ	[x]
8.	Da:l	د	[d]
9.	Za:l	ذ	[z]
10.	Ro:	ر	[r]
11.	Za:	ز	[z]
12.	Si:n	س	[s]
13.	Shi:n	ش	[sh]
14.	Şo:d	ص	[s̰]

15.	Do:d	ض	[d̰]
16.	To:	ط	[t̰]
17.	Zo:	ظ	[z̰]
18.	Ayn	ع	[ʿ]
19.	Gʻayn	غ	[gʻ]
20.	Fa:	ف	[f]
21.	Qo:f	ق	[q]
22.	Ka:f	ك	[k]
23.	La:m	ل	[l]
24.	Mi:m	م	[m]
25.	Nu:n	ن	[n]
26.	Ha:	ه	[h]
27.	Va:v	و	[y]
28.	Ya:	ي	[v]

Alifbodagi 28 ta harf yozilishiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi

Munfasil harflar
6 ta

Muttasil harflar
22 ta

Munfasil harflar quyidagilar:

1.	<i>Ali:f</i>	ا	
2.	<i>Da:l</i>	د	[d]
3.	<i>Za:l</i>	ذ	[z]
4.	<i>Ro:</i>	ر	[r]
5.	<i>Za:</i>	ز	[z]
6.	<i>Va:v</i>	و	[v]

Munfasil harflarning xususiyati shundan iboratki, ular yozuvda faqat o'zidan oldin kelayotgan harfga qo'shiladi, **o'zidan keyin kelayotgan harfga qo'shilmaydi**. Shu sababli **ularning yozuvda ikkita ko'rinishi** bor. Munfasil harflarning mana shu xususiyatidan kelib chiqqan holda bu harflar guruhi **ikki ko'rinishli harflar guruhi** deb ham nomlanadi.

1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. *Alifbodagi harflar soni nechta?*
2. *Ular necha guruhga bo'linadi?*
3. *Ular qaysi guruhlar?*
4. *Harflar nimaga asosan guruhlarga bo'linadi?*
5. *Munfasil harflar nechta?*
6. *Ularning orasida qaysi harflar shakldosh hisoblanadi?*
7. *Munfasil harflarning asosiy xususiyati nima?*
8. *Munfasil harflar guruhi yana qanday nomlanadi?*
9. *Munfasil harflar qaysi tomondagi harfga qo'shiladi?*
10. *Munfasil harflar qaysi tomondagi harfga*
11. *qo'shilmaydi?*
12. *Za:l harfiga shakldosh harf qaysi?*
13. *Za: harfiga shakldosh harf qaysi?*
14. *Munfasil harflar orasida nuqtali harflar qaysilar?*
15. *Munfasil harflar orasida nuqtasiz harflar qaysilar?*
Munfasil harflar guruhi nimaga ikki ko'rinishli harflar
guruhi deb ham nomlanadi?

2-topshiriq. 6 ta munfasil harfning har bir ko'rinishini ikki qatordan yozing.

3-topshiriq. Arab alifbosini yodlang.

2-DARS

UNLILAR

Qisqa unlilar

Cho'ziq unlilar

Qisqa unlilar yozuvda harfning ustiga yoki ostiga qo'yiladigan maxsus belgilar bo'lib, ularning umumiy nomi harakatlardir. Arab tilida qisqa unlilarni ifodalovchi harakatlar soni 3 ta bo'lib, ular quyidagilar:

<i>Nº</i>	<i>Harakat nomi</i>	<i>Harakat ifodalovchi tovush</i>	<i>Harakatning yozilishi</i>	<i>Harakatning o'qilishi</i>
1.	<i>fatha</i>	<i>a</i>	َ	[da]
2.	<i>kasra</i>	<i>i</i>	ِ	[di]
3.	<i>damma</i>	<i>u</i>	ُ	[du]

Cho'ziq unlilar so'z tarkibida qisqa unlilardan keyin harflar bilan beriladi. Arab tilida cho'ziq unlilarni ifodalovchi harflar soni 3 ta bo'lib, ular quyidagilar:

<i>Nº</i>	<i>Cho'ziq unlilar</i>	<i>Qisqa unlidan keyin keluvchi cho'ziq unlini ifodalovchi harf</i>	<i>Cho'ziq unlining yozilishi</i>	<i>Cho'ziq unlining o'qilishi</i>
1.	<i>a:</i>	<i>fatha + harakatsiz ali:f</i>	اَ	[da:]
2.	<i>i:</i>	<i>kasra + harakatsiz ya:</i>	يِ	[di:]
3.	<i>u:</i>	<i>damma + harakatsiz va:v</i>	وُ	[du:]

1-topshiriq. Quyidagi bo‘g‘inlarni tez va to‘g‘ri o‘qishni mashq qiling. Bo‘g‘inlarni harflab ayting.

دَرَزَ	رَاَزَ	دُورَ	وَدَا
دُرِدَ	رُودِ	رَدُو	وَدُو
زَارَ	زُورَ	دُورِ	وُورَ
رُوزَ	وُزَرَ	وَدُزِ	زُورِ

2-topshiriq. Quyidagi bo‘g‘inlarni arab yozuvida yozing.

<i>Za/fatha/alif/ro/alif</i>	زَارَ
<i>Dal/kasra/ro/damma/vav/fatha</i>	
<i>Vav/kasra/ro/damma/vav</i>	
<i>Zal/damma/ro/kasra/dal/fatha</i>	
<i>Za/damma/vav/fatha/ro/kasra</i>	
<i>Ro/fatha/alif/za/fatha</i>	
<i>Dal/damma/vav/za/fatha</i>	
<i>Vav/damma/vav/za/kasra</i>	
<i>Vav/kasra/dal/fatha/alif</i>	
<i>Ro/kasra/zal/fatha/alif</i>	
<i>Ro/kasra/dal/fatha/vav/damma</i>	

3-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Arab tilida unlilar necha guruhga bo'linadi?
2. Ular qaysilar?
3. Qisqa unlilarni ifodalovchi belgilarning umumiy nomi?
4. Arab tilida nechta harakat bor?
5. Qisqa "a" unlisini ifodalovchi harakat nomi?
6. Qisqa "i" unlisini ifodalovchi harakat nomi?
7. Qisqa "u" unlisini ifodalovchi harakat nomi?
8. Cho'ziq unlilarni ifodalovchi harflar qaysilar?
9. Ya: harfi qaysi unlini cho'zish uchun xizmat qiladi?
10. Va:v harfi qaysi unlini cho'zish uchun xizmat qiladi?
11. Alif harfi qaysi unlini cho'zish uchun xizmat qiladi?
12. Harflar orqali ifodalanadigan unlilar nomi?
13. Harakatlar orqali ifodalanadigan unlilar nomi?
14. Fatha harakati qaysi unlini ifodalaydi?
15. Kasra harakati qaysi unlini ifodalaydi?

3-DARS

BELGILAR

Tashdid belgisi. Soʻz tarkibidagi undosh harf ikkilantirib talaffuz qilinadigan boʻlsa, harf ustiga tashdid belgisi qoʻyiladi.

دَرَز	زُور	دَوَّر	رَدَّوْ
-------	------	--------	---------

Sukun belgisi. Sukun belgisi undoshdan keyin unli yoʻqligini ifodalash uchun harf ustiga qoʻyiladigan belgi hisoblanadi.

دَرَزْ	زُورْ	دَوَّرْ	رَدَّوْ
--------	-------	---------	---------

Tanvinlar. Arab tilida ot, sifat, son, harakat nomi hisoblanadigan aksariyat soʻzlar tanvin belgisi bilan tugaydi. Tanvin belgisi doim soʻz oxirida damma, kasra yoki fatha qisqa unlilarining biri bilan birga keladi. Tanvin belgisi oʻzi alohida [n] tovushini beradi. Yozuvda esa oʻzi bilan kelayotgan harakat shakliga mos ravishda yoziladi.

№	Arab tilida mavjud kelishiklar	Tanvinlar	Oʻqilishi	Soʻzning kelishiklarda turlanishi	
1.	Bosh kelishik	Tanvin damma	[un]	وَرْدٌ	atirgul
2.	Qaratqich kelishigi	Tanvin kasra	[in]	وَرْدٍ	atirgulning
3.	Tushum kelishigi	Tanvin fatha	[an]	* وَرْدًا	atirgulni

Eslatma: * Tushum kelishigida kelgan soʻzlar oxirida oʻqilmaydigan alif harfi yoziladi.

KALIMA:TUN JADI:DATUN (YANGI SO‘ZLAR)

<i>davr</i>	دَوْرٌ
<i>atirgul</i>	وَرْدٌ
<i>hovli</i>	دَارٌ
<i>hovlilar</i>	دُورٌ
<i>vov harfi</i>	وَائٌ

1-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni tez o‘qing va kelishiklarga ahamiyat bergan holda tarjima qiling. Berilgan namuna asosida har bir so‘zni tahlil qiling.

Namuna:	<i>Bosh kelishik</i>	<i>“va:v” harfi</i>	<i>[va:vun]</i>	وَائٌ
----------------	----------------------	---------------------	-----------------	-------

وَائٌ – دُورٌ – دَارًا – وَرْدٌ – دَوْرًا – وَائٌ – دُورٌ
 دَارٌ – وَرْدٌ – دَوْرٌ – وَائٌ – دُورٌ – دَارٌ – دَوْرٌ

2-topshiriq.   So‘zlarning tarjimalariga ahamiyat bering va to‘g‘ri yoki xato belgilarini qo‘ying.

	<i>davr</i>	دَوْرٌ
	<i>atirgulni</i>	وَرْدًا
	<i>hovli</i>	دَارٌ

	<i>hovlilarni</i>	دُورِ
	<i>vov harfi</i>	وَاوُ
	<i>davrnı</i>	دَوْرُ
	<i>atirgulning</i>	وَرْدِ
	<i>hovlining</i>	دَارًا
	<i>hovlilarni</i>	دُورُ
	<i>vov harfi</i>	وَاوِ
	<i>davrnı</i>	دَوْرًا
	<i>atirgul</i>	وَرْدُ
	<i>hovlini</i>	دَارِ
	<i>hovlilar</i>	دُورًا
	<i>vov harfini</i>	وَاوًا

3-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. *Tanvin kasra qaysi kelishikni beradi?*
2. *“To‘xtash” ma’nosini beruvchi belgi nomi?*
3. *Tanvin damma qaysi tovushni beradi?*
4. *Tashdid qachon ishlatiladi?*

5. *Tanvinlar soni nechta?*
6. *Sukun qachon ishlatiladi?*
7. *Tanvin fatha qaysi tovushni beradi?*
8. *Tashdid soʻzining maʼnosi nima?*
9. *Tanvin belgisi soʻz boshida keladimi?*
10. *Yopiq boʻgʻinni ifodalashda qaysi belgidan foydalanamiz?*
11. *Tanvin damma qaysi kelishikni beradi?*
12. *Qoʻsh undoshni ifodalashda qaysi belgidan foydalanamiz?*
13. *Tanvin belgisi bir oʻzi keladimi?*
14. *Sukun belgisi harfning tagiga qoʻyiladimi?*
15. *Tanvin belgisi qaysi harakat bilan kelganda, soʻz oxirida oʻqilmaydigan alif harfi yoziladi?*
16. *Fatha va damma harakatlari tashdid bilan birga kelsa, tashdidning qayeriga qoʻyiladi?*
17. *Tanvin faqat soʻz oxirida keladi, toʻgʻrimi?*
18. *Sukun belgisi bir oʻzi keladimi yoki harakatlar bilanmi?*
19. *Tanvin kasra qaysi tovushni beradi?*
20. *Tanvin fatha qaysi kelishikni beradi?*

4-DARS

MUTTASIL HARFLAR

Alifbodagi **muttasil harflar soni 22 ta** bo'lib, ular quyidagilar:

1.	Ba:	ب	[b]
2.	Ta:	ت	[t]
3.	Sa:	ث	[s]
4.	Ji:m	ج	[j]
5.	Ha:	ح	[h]
6.	Xa:	خ	[x]
7.	Si:n	س	[s]
8.	Shi:n	ش	[sh]
9.	So:d	ص	[s]
10.	Do:d	ض	[d]
11.	To:	ط	[t]
12.	Zo:	ظ	[z]
13.	Ayn	ع	[ʿ]
14.	Gʻayn	غ	[gʻ]
15.	Fa:	ف	[f]
16.	Qo:f	ق	[q]
17.	Ka:f	ك	[k]
18.	La:m	ل	[l]
19.	Mi:m	م	[m]
20.	Nu:n	ن	[n]
21.	Ha:	ه	[h]
22.	Ya:	ي	[v]

Muttasil harflarning xususiyati shundan iboratki, ular yozuvda ham oʻzidan oldin, ham oʻzidan keyin kelayotgan harfga qoʻshilib yoziladi. Lekin yozuvda doim muttasil harfdan oldingi harfga eʼtiborli boʻlishimiz kerak, chunki muttasil harfdan oldin

munfasil harf kelsa, har ikki harf yozuvda qo‘shilmaydi. Bunga munfasil harflarning xususiyati sabab bo‘ladi. **Muttasil harflarning yozuvda to‘rtta ko‘rinishi** bor. Muttasil harflarning mana shu xususiyatidan kelib chiqqan holda bu harflar guruhi **to‘rt ko‘rinishli harflar guruhi** deb ham nomlanadi.

Muttasil harflar ichida **ba:**, **ta:**, **sa:** harflari o‘zaro shakldosh harflar hisoblanadi.

Nu:n va **ya:** harflari ham 2-3-ko‘rinishlarda yuqoridagi uchta harf bilan shakldosh hisoblanadi.



1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. *Alifbodagi harflar soni nechta?*
2. *Ular necha guruhga bo‘linadi?*
3. *Ular qaysi guruhlar?*
4. *Harflar nimaga asosan guruhlarga bo‘linadi?*
5. *Munfasil harflar nechta?*
6. *Muttasil harflar nechta?*
7. *Munfasil harflarning asosiy xususiyati nima?*
8. *Muttasil harflarning asosiy xususiyati nima?*
9. *Munfasil harflar guruhi yana qanday nomlanadi?*
10. *Muttasil harflar guruhi yana qanday nomlanadi?*
11. *Munfasil harflar qaysi tomondagi harfga qo‘shilmaydi?*
12. *Muttasil harflar qaysi tomondagi harfga qo‘shilmaydi?*
13. *Munfasil harflar guruhi nimaga ikki ko‘rinishli harflar guruhi deb ham nomlanadi?*
14. *Muttasil harflar guruhi nimaga to‘rt ko‘rinishli harflar guruhi deb ham nomlanadi?*

KALIMA:TUN JADI:DATUN

<i>eshik(lar)</i>	بَابُ (أَبْوَابُ)
<i>uy(lar)</i>	بَيْتُ (بُيُوتُ)
<i>uyim</i>	بَيْتِي *
<i>qiz(lar)</i>	بِنْتُ (بَنَاتُ)
<i>qizim</i>	بِنْتِي
<i>ota</i>	أَبُ *
<i>otam</i>	أَبِي
<i>qo'l(lar)</i>	يَدُ (أَيْدٍ)
<i>qo'lim</i>	يَدِي
<i>kiyim(lar)</i>	ثَوْبُ (أَثْوَابُ)
<i>kiyimim</i>	ثَوْبِي
<i>voris</i>	وَارِثُ

<i>nodir</i>	نَادِرٌ
<i>yorugʻ</i>	نَيْرٌ
<i>tartib</i>	تَرْتِيبٌ
<i>quyon(lar)</i>	أَرْنَبٌ (أَرَانِبٌ)
<i>Iordaniya</i>	أُرْدُنٌ

Eslatma. *Arab tilida **birikma olmoshlari** oʻzbek tilidagi egalik qoʻshimchlariga toʻgʻri keladi. Arab tilida ham xuddi oʻzbek tilidagidek birikma olmoshlari soʻz oxiriga qoʻshiluvchi qoʻshimchalar hisoblanadi. Masalan, yuqoridagi lugʻatda keltirilgan “**uyim**”, “**qizim**”, “**qoʻlim**” kabi soʻzlarga birlik I shaxsni ifodalovchi birikma olmoshi qoʻshilgan.

<i>uyim</i>	بَيْتِي
<i>qizim</i>	بِنْتِي
<i>otam</i>	أَبِي
<i>qoʻlim</i>	يَدِي
<i>kiyimim</i>	ثَوْبِي

* Yuqorida keltirilgan lugʻatda “*ota*” va “*Iordaniya*” soʻzlarida soʻzning birinchi harfi, yaʼni alif ustiga **hamza belgisi** qoʻyilgan. Hamza belgisi soʻz boshida kelganda, unga doim alif harfi tayanch boʻladi. Soʻz boshida kelayotgan hamza belgisi fatha, kasra yoki damma harakatlaridan biri bilan birga keladi va qisqa unilarga mos tarzda “a”, “i” yoki “u” tarzida talaffuz qilinadi. “*Ota*” [*abun*] soʻzida hamza belgisi soʻz boshida alif harfi tayanchligida fatha harakati bilan birga kelib, qoidaga koʻra [a] qisqa unlisini ifodalagan.

<i>ota</i>	أَب
<i>Iordaniya</i>	أُرْدُن

2-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarni namunadagidek harflarning yozilish qoidalariga amal qilgan holda qoʻshib yozing.

Namuna:	نَادِرٌ	نَادِرٌ
		ثَوْبِي
		دُورٌ
		بِنْتُ
		يَدِي
		دَارٌ
		بِنْتِي
		نَيَّرٌ

3-topshiriq.   Quyida berilgan soʻzlarda harflarning yozilish qoidalariga amal qilinganmi? Toʻgʻri yoki xato belgilarini qoʻying. Xato yozilgan soʻzlarni tuzating.

	ثَوْبِي
	بَابٌ
	دَارٌ
	بِنْتُ
	نَيِّيرٌ
	وَرِثٌ
	نَادِرٌ
	بِنْتُ
	يَادِي
	بَابٌ
	ثَوْبٌ

4-topshiriq. Ustunni namunadagidek toʻldiring.

Soʻz	Soʻzdagi harf va belgilar ketma-ketligi
دَوْرٌ	<i>DAL / fatha / VAV / sukun / RO / tanvin kasra</i>
	<i>BA / fatha / ALIF / BA / tanvin damma</i>

	YA / fatha / DAL / tanvin kasra
	SA / fatha / VAV / sukun / BA / tanvin kasra
	BA / kasra / NUN / sukun / TA / tanvin fatha / ALIF
	BA / fatha / YA / sukun / TA / tanvin kasra
	SA / fatha / VAV / sukun / BA / tanvin fatha / ALIF
	VAV / fatha / ALIF / VAV / tanvin kasra
	ALIF / hamza / fatha / BA / tanvin kasra
	BA / fatha / ALIF / BA / tanvin fatha / ALIF
	NUN / fatha / ALIF / DAL / kasra / RO / tanvin damma

5-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlardagi harflarni namunada koʻrsatilganidek, faqat 1-koʻrinishini yozib chiqing.

Namuna:	نَادِرٌ	نَادِرٌ
		أَبِي
		يَدٌ
		نَادِرٌ
		نَيْرٌ
		ثَوْبِي
		وَارِثٌ
		دَوْرٌ

	بَابٌ
	بَيْتٌ

6-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarga namunada koʻrsatilganidek, birlik I shaxs birikma olmoshini qoʻshing va tarjima qiling.

<i>Namuna:</i>	<i>eshigim</i>	بَابِي	بَابٌ
			بَيْتٌ
			بِنْتُ
			أَبٌ
			يَدٌ
			ثَوْبٌ
			وَارِثٌ
			أَرْنَبٌ
			أَرَانِبُ
			أَبْوَابٌ
			بُيُوتٌ
			بَنَاتٌ
			أَثْوَابٌ

5-DARS

SI:N

س

SHI:N

ش

MI:M

م

HAMZA BELGISINING SO‘Z BOSHIDA KELISHI

Hamza belgisi so‘z boshida kelganda, unga doim alif harfi tayanch bo‘ladi. So‘z boshida kelayotgan hamza belgisi fatha, kasra yoki damma harakatlaridan biri bilan birga keladi va qisqa unlilarga mos tarzda “a”, “i” yoki “u” tarzida talaffuz qilinadi.

<i>Hamza belgisining so‘z boshida damma bilan kelishi</i>	<i>Hamza belgisining so‘z boshida kasra bilan kelishi</i>	<i>Hamza belgisining so‘z boshida fatha bilan kelishi</i>
أُمُّ	إِنْسَانٌ	أَسْرَارٌ
أُمَمَاتٌ	إِيْمَانٌ	أَوْرَادٌ

KALIMA:TUN JADI:DATUN

<i>inson(lar)</i>	إِنْسَانٌ (نَاسٌ)
<i>suriyalik(lar)</i>	سُورِيٌّ (سُورِيُّونَ)

o'simlik(lar)	نَبَاتٌ (نَبَاتَاتٌ)
dars(lar)	دَرْسٌ (دُرُوسٌ)
krovat(lar)	سَرِيرٌ (سُرُرٌ)
sir(lar)	سِرٌّ (أَسْرَارٌ)
sabab(lar)	سَبَبٌ (أَسْبَابٌ)
ona	أُمٌّ
o'g'il	إِبْنٌ
semiz, gavdali	بَدِينٌ
quyosh	شَمْسٌ
o'rik	مِشْمِشٌ
anjir	تَيْنٌ
tut	تُوتٌ

1-topshiriq. Quyidagi bo‘g‘inlarni o‘qing.

بَا	بِي	نُو	تَا	مُو
بِ	سِي	شَ	تَا	نِ
يَا	زَ	دَا	سِ	مَ
رِي	مِي	وُو	تَ	وَا
مَّا	بُ	شُ	دَا	سُ

2-topshiriq. Transkripsiya asosida harflarni harakatlantiring.

<i>ti</i>	ت	<i>ba</i>	ب	<i>ru</i>	ر
<i>sa</i>	ث	<i>din</i>	د	<i>bi</i>	ب
<i>bu</i>	ب	<i>zun</i>	ز	<i>da</i>	د
<i>vun</i>	و	<i>mi</i>	م	<i>vin</i>	و
<i>ma</i>	م	<i>nu</i>	ن	<i>mun</i>	م
<i>rin</i>	ر	<i>shun</i>	ش	<i>na</i>	ن
<i>na</i>	ن	<i>tu</i>	ت	<i>zu</i>	ذ
<i>sa</i>	س	<i>sa</i>	ث	<i>sha</i>	ش

3-topshiriq. Quyidagi soʻzlarning birligini yozing.

<i>birlik</i>	<i>koʻplik</i>
دَرْسٌ	دُرُوسٌ
	أَسْرَارٌ
	أَسْبَابٌ
	نَبَاتَاتٌ
	دُورٌ
	أَرَانِبٌ
	بُيُوتٌ
	سُرُرٌ
	نَاسٌ
	أَبْوَابٌ
	أَثْوَابٌ

4-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarni namunadagidek qoʻshib yozing.

شَ مْ سْ	شَمْسْ	أَسْ رَارْ	أَسْرَارْ
تِ ي نْ		إِنْ سَ انْ	
تُ و تْ		نَ اسْ	
مِ شْ مِ شْ		أُمُّ	
نَ بَ اتْ		إِبْنْ	
دَ رْسْ		إِ ي مَ انْ	
دُ رُوسْ		إِمَامْ	
سَ رِ ي رْ		أُمِّ مْ	
سُ رُرْ		بَ دِ ي نْ	
سِ رْ		سَ بَ بْ	
أَسْ بَ ابْ		نَ ادِرْ	
بَ يْ تْ		أَبِ يْ	
بِ نْ تْ		أَزْنَ بْ	

5-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarni tez oʻqishni mashq qiling, oʻqish tezligini 20-25 soniyaga yetkazing va soʻzlarning kelishigiga ahamiyat bergan holda tagiga tarjimasini yozing.

دُرُوسٍ	تَيْنٌ	شَمْسًا	إِبْنِي
إِنْسَانًا	سَرِيرِي	ثُوتٌ	سِرٌّ
نَبَاتَاتٌ	ثَوْبِي	دَرَسٍ	نَيْرٌ
بَابٌ	أَسْرَارٌ	بِنْتٍ	أُمِّي
أَبِي	بَيْتِي	سُرُرًا	نَادِرٌ
نَاسٌ	بَدِينٌ	نَبَاتِي	يَدِي

6-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. *Ba: harfini nuqtasi tepaga chiqsa, qaysi harf bo'ladi?*
2. *Ta: harfini nuqtasi pastga tushsa, qaysi harf bo'ladi?*
3. *Ta: harfiga bitta nuqta qo'shilsa, qaysi harf bo'ladi?*
4. *Nu:n harfini nuqtasi pastga tushsa, qaysi harf bo'ladi?*
5. *Nu:n harfiga bitta nuqta qo'shilsa, qaysi harf bo'ladi?*
6. *Nu:n harfiga ikkita nuqta qo'shilsa, qaysi harf bo'ladi?*
7. *Ya: harfini nuqtasi tepaga chiqsa, qaysi harf bo'ladi?*
8. *Sa: harfidagi nuqtalar soni nechta?*
9. *Ba: harfidagi nuqtalar soni nechta?*
10. *Ta: harfidagi nuqtalar soni nechta?*
11. *Ya: harfidagi nuqtalar soni nechta?*
12. *Va:v harfidagi nuqtalar soni nechta?*
13. *Nu:n harfidagi nuqtalar soni nechta?*
14. *Sa: harfidan ikkita nuqta olib tashlansa, qaysi harf bo'ladi?*
15. *Ta: harfini bitta nuqtasi olib tashlansa, qaysi harf bo'ladi?*

6-DARS

HA:

ه

Ta: marbuta harfi va jins kategoriyasi

Arab tilida otlar **muzakkar** va **muannas** jinsga bo'linadi.

Muannas jinsning grammatik belgisi bu - so'z oxiridagi **ta: marbuta harfi** hisoblanadi. Ta: marbuta harfining yozuvda quyidagi ikki ko'rinishi mavjud:

ة

So'z
oxirida
munfasil
harflardan
keyin

ة

So'z
oxirida
muttasil
harflardan
keyin

ة

سَبُّورَةٌ
سَيَّارَةٌ

ة

هَذِيَّةٌ
مَدْرَسَةٌ

Boshqa harflar bilan tugagan so'zlar muzakkar jins hisoblanadi.

هَاتِفٌ

شَهْرٌ

بَيْتٌ

دَرْسٌ

نَهْرٌ

Arab tilida soʻzning jinsi grammatik belgisiga qarab emas, uning mazmunidan kelib chiqib belgilanadigan quyidagi holatlar mavjud.

Tamarbuta harfi bilan tugagan soʻz
erkak kishini bildirsa yoki erkak kishiga
qoʻyilgan ism boʻlsa, bu soʻz
muzakkar jins hisoblanadi.

Hamza	حَمَزَةٌ	xalifa	خَلِيفَةٌ
-------	----------	--------	-----------

Muannaslik grammatik belgisi boʻlmagan
quyidagi soʻzlar **muannas jins**
hisoblanadi:

Ayol kishini
bildiruvchi
soʻzlar

Ayollar ismini
bildiruvchi
soʻzlar


Tana juft
aʼzolarini
bildiruvchi
soʻzlar

ona	أُمُّ	Zaynab	زَيْنَبُ	qoʻl	يَدٌ
qiz	بِنْتُ	Maryam	مَرْيَمُ	quloq	أُذُنٌ

Arab tilida odamlarning kasbi, mansabi, qarindoshlik munosabatlarini bildiruvchi muzakkar jinsdagi soʻzlarning oxiriga ta: marbuta harfini qoʻshish orqali muannas jins yasash mumkin:

mn	←	mz	mn	←	mz
مُدْرَسَةٌ		مُدْرَسٌ	رَسَّامَةٌ		رَسَّامٌ
مُدِيرَةٌ		مُدِيرٌ	جَدَّةٌ		جَدٌّ

Arab tilida otlar **kim** yoki **nima** soʻrogʻiga javob berishiga qarab quyidagi ikki guruhga boʻlinadi:



Eslatma: Arab tilida **gʻayri oqil otlarning koʻplik shakli birlik muannas jins** hisoblanadi. Bunda soʻzning birlik shaklining jinsi ahamiyatsiz.

KALIMA:TUN JADI:DATUN

<i>ona(lar)</i>	أُمُّ (أُمَّهَاتٌ)
<i>oʻqituvchi(lar)</i>	مُدَرِّسٌ (مُدَرِّسُونَ)
<i>rassom(lar)</i>	رَسَّامٌ (رَسَّامُونَ)
<i>direktor(lar)</i>	مُدِيرٌ (مُدِيرُونَ)
<i>sovgʻa(lar)</i>	هَدِيَّةٌ (هَدَايَا)
<i>oy(lar)</i>	شَهْرٌ (شُهُورٌ)
<i>daryo(lar)</i>	نَهْرٌ (أَنْهَارٌ)
<i>maktab(lar)</i>	مَدْرَسَةٌ (مَدَارِسُ)

doska(lar)	سَبُّورَةٌ (سَبُّورَاتٌ)
yil(lar)	سَنَةٌ (سَنَوَاتٌ)
mashina(lar)	سَيَّارَةٌ (سَيَّارَاتٌ)
quloq	أُذُنٌ
kim (so 'roq olmoshi)	مَنْ
nima (so 'roq olmoshi)	مَا
bu, mana bu (yaqinni ko 'rsatuvchi olmosh)	هَذَا (mz) هَذِهِ (mn)

1-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarni ikki ustun – oqil va gʻayri oqilga ajratib, tarjimasi bilan yozing.

إِبْنٌ	نَهْرٌ	تَيْنٌ	إِمَامٌ
أُمٌّ	بَابٌ	سَرِيرٌ	دُرُوسٌ
سُرُرٌ	بِنْتُ	أَسْرَارٌ	نَبَاتَاتٌ
سِرٌّ	نَبَاتٌ	مِشْمِشٌ	أَبٌ

شَهْرٌ	هَذِيَّةٌ	نَاسٌ	هَدَايَا
شُهُورٌ	سَيَّارَةٌ	أَنْهَارٌ	إِنْسَانٌ
مُدَرِّسٌ	سَبُّورَاتٌ	رَسَامٌ	مُدِيرَةٌ

2-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarni ikki ustun – muzakkar va muannas jinsga ajratib, tarjimasi bilan yozing.

سَيَّارَاتٌ	تَيْنٌ	نَهْرٌ	إِبْنٌ
دُرُوسٌ	سَرِيرٌ	بَابٌ	أُمٌّ
نَبَاتَاتٌ	أَسْرَارٌ	بِنْتُ	سُرُرٌ
أَبٌ	مِشْمِشٌ	نَبَاتٌ	سِرٌّ
شَهْرٌ	هَذِيَّةٌ	نَاسٌ	هَدَايَا
شُهُورٌ	سَيَّارَةٌ	أَنْهَارٌ	إِنْسَانٌ
مُدَرِّسٌ	سَبُّورَاتٌ	رَسَامٌ	مُدِيرَةٌ

3-topshiriq. Quyidagi soʻzlarning koʻpligini yozing.

<i>jamʻ – koʻplik</i>	<i>mufrad – birlik</i>
مَدَارِسُ	مَدْرَسَةٌ
	دَارٌ
	نَهْرٌ
	نَبَاتٌ
	شَهْرٌ
	دَرْسٌ
	سَنَةٌ
	سَرِيرٌ
	سَبُّورَةٌ
	سِرٌّ
	سَيَّارَةٌ
	إِنْسَانٌ
	هَدِيَّةٌ
	سَبَبٌ

Birlikdagi yaqinni ko'rsatuvchi olmoshlarning qo'llanilishi

Birlikdagi yaqinni ko'rsatuvchi olmoshlarning m u z a k k a r j i n s i

مَنْ	KIM?	مَا	NIMA?
مَنْ هَذَا؟ هَذَا مُدَرِّسٌ.	Bu kim? Bu – o'qituvchi.	مَا هَذَا؟ هَذَا نَبَاتٌ.	Bu nima? Bu – o'simlik.

Birlikdagi yaqinni ko'rsatuvchi olmoshlarning m u a n n a s j i n s i

مَنْ	KIM?	مَا	NIMA?
مَنْ هَذِهِ؟ هَذِهِ مُدِيرَةٌ.	Bu kim? Bu – direktor.	مَا هَذِهِ؟ هَذِهِ سَبُّورَةٌ.	Bu nima? Bu – doska.

4-topshiriq. Quyidagi matnni o'qing, tarjima qiling, jumalarning jinsini aniqlang.

مَنْ هَذَا؟ هَذَا رَسَّامٌ.
مَنْ هَذِهِ؟ هَذِهِ رَسَّامَةٌ.
مَا هَذَا؟ هَذَا بَيْتٌ.
مَا هَذِهِ؟ هَذِهِ بُيُوتٌ.

مَا هَذِهِ؟ هَذِهِ هَدِيَّةٌ.
 مَا هَذِهِ؟ هَذِهِ هَدَايَا.
 مَنْ هَذَا؟ هَذَا أَبِي.
 مَنْ هَذِهِ؟ هَذِهِ أُمِّي.
 مَا هَذَا؟ هَذَا سَرِيرٌ.
 مَا هَذِهِ؟ هَذِهِ سُرُرٌ.
 مَا هَذِهِ؟ هَذِهِ سَيَّارَةٌ.
 مَا هَذِهِ؟ هَذِهِ سَيَّارَاتٌ.
 مَنْ هَذَا؟ هَذَا مُدِيرٌ.
 مَنْ هَذِهِ؟ هَذِهِ مُدِيرَةٌ.

5-topshiriq. Quyidagi arab tiliga tarjima qiling, jummalarning jinsini aniqlang.

*Bu – daryo. Bu – daryolar. Bu – mening o‘qituvchim (mz).
 Bu – maktab. Bu – maktablar. Bu – mening otam. Bu – dars.
 Bu – darslar. Bu – mening o‘qituvchim (mn). Bu – quloq.
 Bu – o‘rik. Bu – mening o‘g‘lim. Bu – o‘simlik. Bu – o‘simliklar.
 Bu – mening onam. Bu – qo‘l. Bu – anjir. Bu – mening qizim.
 Bu – quyosh¹.*

¹ “شَمْسٌ” – “Quyosh” so‘zi muannas jins hisoblanadi.

6-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarni tez oʻqishni mashq qiling, oʻqish tezligini 20-25 soniyaga yetkazing va soʻzlarning tagiga tarjimasini yozing.

مَذْرَسَةٌ	نَهْرٌ	سَيَّارَةٌ	أَنْهَارٌ
رَسَامَةٌ	شَهْرٌ	دُرُوسٌ	مُدَرِّسٌ
سَنَوَاتٌ	سَبُّورَاتٌ	شُهُورٌ	مَدَارِسُ
مِشْمِشٌ	هَدِيَّةٌ	سَنَةٌ	سَرِيرٌ
مُدِيرَةٌ	نَبَاتٌ	سَبُّورَةٌ	أُذُنٌ
مُدِيرٌ	رَسَامٌ	هَدَايَا	سَيَّارَاتٌ

7-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Ta: marbuta harfi qaysi harfga shakldosh harf hisoblanadi?
2. Ta:marbuta soʻzning qayerida keladigan harf?
3. Gʻayri oqil soʻzlarning koʻpligi muannas jins hisoblanadi, toʻgʻrimi?
4. Oxirida ta:marbutasi yoʻq soʻzlar qaysi jins hisoblanadi?
5. Ta: marbutaning yozuvda nechta koʻrinishi bor?
7. Arab tilida kim savoliga javob boʻluvchi soʻzlar qanday nomlanadi?
8. Ta: marbuta alifbodagi qaysi harf bilan bir xil tovush ifodalaydi?
9. Tanamizdagi juft aʼzolari anglatuvchi soʻzlar qaysi jins hisoblanadi?
10. Ta: marbuta harfi alifboga kiritilganmi?
11. Gʻayri oqil soʻzlar qanday savolga javob boʻladi?
12. Arab tilida nechta jins bor?
13. Muannas jinsning grammatik belgisi nima?
14. Oqilni anglatuvchi soʻzlar qaysi savolga javob beradi?
Gʻayri oqil soʻzlarning koʻpligi qaysi jins hisoblanadi?
15. Arab tilida nima savoliga javob boʻluvchi soʻzlar qanday nomlanadi?



أُمِّي - شَمْسِي



ONAM - QUYOSHIM

7-DARS

FA:

ف

QO:F

ق

IKKILIK SON KATEGORIYASI

Arab tilida son kategoriyasi birlik, ikkilik va ko'plikdan iborat. Boshqa tillardan farqli o'laroq, arab tilida ikkilik son kategoriyasi mavjud bo'lib, u so'zning birlik shaklidan quyidagicha yasaladi:



Ikkita o'qituvchi

Bitta o'qituvchi

Bunda birlikda turgan so'z oxiridagi tanvin damma o'rniga [a:ni] ikkilik yasovchi qo'shimcha qo'shiladi va natijada birlikdagi so'z ikkilikka aylanadi.

Tamarbuta harfi bilan tugagan so'zlardan ikkilik yasalganda, ikkilik yasovchi qo'shimcha qo'shishdan oldin tamarbuta harfi tamamduda harfiga o'zgartiriladi:



Ikkita maktab

Bitta maktab

KALIMA:TUN JADI:DATUN

<i>maqsad(lar)</i>	هَدَفٌ (أَهْدَافٌ)
<i>telefon(lar)</i>	هَاتِفٌ (هُوَ اتِفٌ)
<i>daftar(lar)</i>	دَفْتَرٌ (دَفَاتِرٌ)
<i>bozor(lar)</i>	سُوقٌ (أَسْوَاقٌ)
<i>mehmonxona(lar)</i>	فُنْدُقٌ (فَنَاقٌ)
<i>mashq(lar)</i>	تَمَرِينٌ (تَمَارِينٌ)
<i>qarindosh(lar)</i>	قَرِيبٌ (أَقْرَبَاءٌ)
<i>yaqin</i>	قَرِيبٌ

1-topshiriq. Son kategoriyasiga ahamiyat bergan holda quyidagi jummlarni tarjima qiling.

1. Ahmad – o‘qituvchi.
2. Mahmud – direktor.
3. Ahmad va Mahmud – qarindoshlar.
4. Zaynab – o‘qituvchi.
5. Maryam – direktor.
6. Zaynab va Maryam – qarindoshlar.
7. Nodira – ona.
8. Ziyod – ota.
9. Nodira va Ziyod – rassom.
10. O‘g‘lim va qizim – o‘qituvchi.

2-topshiriq. Quyidagi soʻzlarning ikkilik va koʻplik shaklini yozing.

<i>jamʻ – koʻplik</i>	<i>tasniya – ikkilik</i>	<i>mufrad – birlik</i>
مَدَارِسُ	مَدْرَسَتَانِ	مَدْرَسَةٌ
		هَدَفٌ
		نَهْرٌ
		نَبَاتٌ
		شَهْرٌ
		دَفْتَرٌ
		سَنَةٌ
		سَرِيرٌ
		سَبُّورَةٌ
		هَاتِفٌ
		سَيَّارَةٌ
		سُوقٌ

3-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarni tez oʻqishni mashq qiling, oʻqish tezligini 20-25 soniyaga yetkazing va soʻzlarning tagiga tarjimasini yozing.

أَنْهَارٌ	هَوَاتِفُ	هَاتِفٌ	فُنْدُقٌ
أَهْدَافٌ	دَفَاتِرُ	شَهْرٌ	رَسَامَةٌ
أَسْوَاقٌ	فَنَاقٍ	تَمَارِينُ	قَرِيبٌ
سَرِيرٌ	سَنَةٌ	سُوقٌ	تَمْرِينٌ
أُذُنٌ	هَدَفٌ	نَبَاتٌ	دَفْتَرٌ
أَقْرَبَاءُ	هَدَايَا	رَسَامٌ	مُدِيرٌ

4-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. *Ikkilik yasovchi qo‘shimcha qaysi?*
2. *Arab tilida son kategoriyasi nechaga bo‘linadi?*
3. *Ikkilik so‘zlarning birlik shaklidan yasaladi, to‘g‘rimi?*
4. *So‘zga ikkilik qo‘shimchasi qo‘shilganda, so‘z oxiridagi tanvin damma saqlanadi, to‘g‘rimi?*
5. *Tamarbuta bilan tugovchi so‘zlarga ikkilik qo‘shimchasi qo‘shilganda, so‘zda qanday o‘zgarish bo‘ladi?*
6. *So‘zdan ikkilik yasalganda, so‘z oxiridagi tanvin damma belgisi tushib qoladi, to‘g‘rimi?*
7. *Tamarbuta bilan tugovchi so‘zga ikkilik qo‘shimchasi qo‘shilganda, tamarbuta harfi qaysi harfga o‘zgartiriladi?*
8. *Arab tilida son kategoriyasi birlik, ikkilik va ko‘plikdan iborat, to‘g‘rimi?*
9. *Tamarbuta bilan tugaydigan so‘zlardan ikkilik yasash mumkinmi?*
10. *Birlikdagi so‘zdan ikkilik yasash uchun so‘z boshiga [a:ni] qo‘shimchasi qo‘shiladi, shundaymi?*

8-DARS

JI:M

ج

HA:

ح

XO:

خ

KASB KORNI ANGLATUVCHI SO‘ZLAR

<i>Arabcha (mn)</i>	<i>Arabcha (mz)</i>	<i>O‘zbekcha</i>
مُدْرِسَة	مُدْرِس	o‘qituvchi
أُسْتَاذَة	أُسْتَاذ	ustoz
نَجَّارَة	نَجَّار	duradgor
خَبَّازَة	خَبَّاز	novvoy
مُتَرْجِمَة	مُتَرْجِم	tarjimon
رَسَّامَة	رَسَّام	rassom
مُهَنْدِسَة	مُهَنْدِس	muhandis
فَنَّانَة	فَنَّان	san’atkor
مُحَاسِبَة	مُحَاسِب	hisobchi
مُدِيرَة	مُدِير	direktor


KO'PLIK

Arab tilida ko'plik gap uch va undan ortiq narsa haqida ketganda ishlatiladi. Ko'plik soni o'zining morfologik xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi - to'g'ri ko'plik va siniq ko'plik.




So'z oxiriga ma'lum qo'shimchalarni qo'shish orqali hosil qilinadigan ko'plik **to'g'ri ko'plik** deyiladi.

Arab tilida kasb-korni ifodalovchi **muzakkar jinsdagi aksariyat so'zlarning ko'pligi to'g'ri ko'plik** orqali yasaladi. Bunda so'z oxiridagi tanvin damma o'rniga **[u:na]** qo'shimchasi qo'shiladi:



Arab tilida kasb-korni ifodalovchi **muannas jinsdagi barcha so'zlarning ko'pligi to'g'ri ko'plik** orqali yasaladi. Bunda so'z oxiridagi tamarbuta harfi o'rniga **[a:tun]** qo'shimchasi qo'shiladi:



Soʻzning oʻzagini tashkil etuvchi undoshlar orasidagi unlilarning oʻzgarishi, nooʻzak undoshlarning kirishi, umuman, soʻz ichki tarkibining oʻzgarishi natijasida hosil boʻluvchi koʻplik **siniq koʻplik** deyiladi. Siniq koʻplik har bir soʻzdan oʻziga xos vaznda hosil boʻladi. Bu vaznlar anchagina boʻlib, ularni maʼlum bir qoida asosida tartibga solib boʻlmaydi. Shu bois soʻzlarni yodlashda ularni koʻpligini bilan yodlash tavsiya etiladi. Yuqorida keltirilgan lugʻatlarda qator soʻzlarning ham birlik, ham koʻplik shaklini berilishining sababi ham shu.

<i>tarjimasi</i>	<i>siniq koʻplik</i>	<i>birlik</i>
<i>telefon(lar)</i>	هُوَ اتِفْ	هَاتِفْ ^{٢٩}
<i>daftar(lar)</i>	دَفَاتِرُ	دَفْتَرٌ ^{٢٩}
<i>bozor(lar)</i>	أَسْوَاقُ ^{٢٩}	سُوقٌ ^{٢٩}

1-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarni jinsiga ahamiyat bergan holda ulardan toʻgʻri koʻplik yasang.

<i>koʻplik</i>	<i>birlik</i>	<i>koʻplik</i>	<i>birlik</i>
	مُدَرِّسَةٌ ^{٢٩}		مُدَرِّسٌ ^{٢٩}
	نَجَّارَةٌ ^{٢٩}		نَجَّارٌ ^{٢٩}
	خَبَّازَةٌ ^{٢٩}		خَبَّازٌ ^{٢٩}
	مُتَرْجِمَةٌ ^{٢٩}		مُتَرْجِمٌ ^{٢٩}
	رَسَّامَةٌ ^{٢٩}		رَسَّامٌ ^{٢٩}

	مُهَنْدِسَة ²⁸		مُهَنْدِس ²⁸
	فَنَّانَة ²⁸		فَنَّان ²⁸
	مُحَاسِبَة ²⁸		مُحَاسِب ²⁸

KISHILIK OLMOSHLARI

ko'plik	ikkilik	birlik	jins	shaxs
نَحْنُ ⁹ <i>biz</i>	–	أَنَا ⁹ <i>men</i>	<i>mz/mn</i>	<i>I</i>
أَنْتُمْ ⁹ <i>siz</i>	أَنْتُمَا ⁹ <i>siz ikkingiz</i>	أَنْتَ ⁹ <i>sen</i>	<i>mz</i>	<i>II</i>
أَنْتُنَّ ⁹ <i>siz</i>		أَنْتِ ⁹ <i>sen</i>	<i>mn</i>	
هُمْ ⁹ <i>ular</i>	هُمَا ⁹ <i>ular ikkisi</i>	هُوَ ⁹ <i>u</i>	<i>mz</i>	<i>III</i>
هُنَّ ⁹ <i>ular</i>		هِيَ ⁹ <i>u</i>	<i>mn</i>	

2-topshiriq. Quyida berilgan kishilik olmoshlari ishtirok etgan sodda yigʻiq ot-kesimli gaplarni oʻqing, tarjima qiling, har bir jumlaning jinsini oʻzgartiring.

	أَنَا أَسْتَاذٌ.
	أَنَا مُهَنْدِسَةٌ.
	أَنْتَ نَجَّارٌ.
	أَنْتِ مُتَرْجِمَةٌ.
	هُوَ خَبَّازٌ.
	هِيَ رَسَّامَةٌ.
	أَنَا فَنَّانَةٌ.
	أَنْتَ مُحَاسِبٌ.
	أَنْتِ مُدِيرَةٌ.
	هُوَ مُدَرِّسٌ.
	هِيَ أَسْتَاذَةٌ.

3-topshiriq. Ishlatilgan kishilik olmoshlarining jinsiga ahamiyat bergan holda savollarga javob bering.

Men – hisobchiman.	مَنْ أَنْتَ؟
Men – duradgorman.	مَنْ أَنْتِ؟
U – o‘qituvchi.	مَنْ هُوَ؟
U – san’atkor.	مَنْ هِيَ؟
Men – tarjimonman.	مَنْ أَنْتَ؟
Men – direktorman.	مَنْ أَنْتِ؟
U – novvoy.	مَنْ هُوَ؟
U – muhandis.	مَنْ هِيَ؟
Men – rassomman.	مَنْ أَنْتَ؟

4-topshiriq. Quyida berilgan birlikdagi sodda yig‘iq ot-kesimli gaplarni ikkilik va ko‘plikda bering.

أَنَا مُهَنْدِسَةٌ. أَنْتَ نَجَّارٌ. أَنْتِ مُتَرْجِمَةٌ.
هُوَ خَبَّازٌ. هِيَ رَسَّامَةٌ. أَنَا فَنَّانَةٌ.
أَنْتَ مُحَاسِبٌ. أَنْتِ مُدِيرَةٌ. هُوَ مُدَرِّسٌ.

5-topshiriq. Son kategoriyasiga ahamiyat bergan holda quyidagi jummalarni tarjima qiling.

Ahmad – o‘qituvchi.

Mahmud va Muhammad – o‘qituvchi.

Muhammad, Ahmad va Mahmud – o‘qituvchilar.

Zaynab – rassom.

Maryam va Nodira – rassom.

Nodira, Zaynab va Maryam – rassomlar.

Otam va onam – muhandis.

O‘g‘lim va qizim – san‘atkor.

Ziyod – ota.

Nodira – ona.

Sobit - o‘g‘il.

Ziyod, Nodira va Sobit – rassomlar.

6-topshiriq. Quyida berilgan ko‘plikdagi sodda yig‘iq ot-kesimli gaplarni birlikka aylantiring.

نَحْنُ مُدَرِّسُونَ. نَحْنُ مُدَرِّسَاتٌ.

أَنْتُمْ نَجَّارُونَ. أَنْتُنَّ نَجَّارَاتٌ.

هُمْ مُتَرْجِمُونَ. هُنَّ مُتَرْجِمَاتٌ.

نَحْنُ فَنَّاوُونَ. نَحْنُ فَنَّاوَاتٌ.




أَنْتُمْ رَسَّامُونَ. أَنْتُنَّ رَسَّامَاتٌ.

هُمْ مُهَنْدِسُونَ. هُنَّ مُهَنْدِسَاتٌ.

7-topshiriq. Quyidagi jummalarni arab tiliga tarjima qiling.

*Men – rassomman (mz). Biz – muhandislarmiz (mn).
 Ular – hisobchilar (mz). U -direktor (mn). Siz – san’atkorsiz (mz). Ular ikkisi – tarjimon (mn). Siz ikkingiz - o‘qituvchisiz (mz).
 Sen – duradgorsan (mz). Men – otaman. U – ona.
 Biz – novvoymiz (mz). Ular - o‘qituvchi;ar (mn).
 Ular ikkisi – rassom (mz). Siz ikkingiz – duradgor (mn).*

8-topshiriq. Rasmlardagi so‘zlarni birlikda va ikkilikda bering..

			
سَيَّارَةٌ / سَيَّارَتَانِ			
			
			

9-topshiriq. Quyidagi kesimlarni egaga moslashtiring va hosil bo‘lgan ot-kesimli gaplarni tarjima qiling.

هُمَا مِصْرِيَّانِ	(mn)	هُمَا (مِصْرِيٌّ)
		هُنَّ (كَاتِبٌ)
		أَنْتُمْ (نَجَّارٌ)
	(mz)	نَحْنُ (سُورِيٌّ)
	(mn)	هُمَا (فَنَّانٌ)
		أَنْتِ (خَبَّازٌ)
		هُوَ (مُدِيرٌ)
		أَنْتُنَّ (بِنْتُ)
		هُمْ (مُدَرِّسٌ)
	(mn)	أَنْتُمَا (طَالِبٌ)
		أَنْتِ (سُورِيٌّ)

		هِيَ (مُحَاسِبٌ)
		أَنْتُنَّ (رَسَامٌ)
	(mz)	نَحْنُ (مُدَرِّسٌ)
	(mn)	أَنْتُمَا (مُهَنْدِسٌ)
		هُنَّ (مُحَاسِبٌ)
		أَنْتُمْ (كَاتِبٌ)
	(mz)	هُمَا (مُدَرِّسٌ)
		أَنْتَ (مُتَرَجِمٌ)
		هُمْ (سُورِيٌّ)
	(mz)	هُمَا (فَنَّانٌ)
	(mz)	أَنْتُمَا (مُهَنْدِسٌ)
	(mz)	أَنْتُمَا (طَالِبٌ)

10-topshiriq. Kishilik olmoshlarini toping.



ب	ذ	ل	ك	ذ	س	ح
ث	ا	ن	ا	ط	ه	و
ل	ن	ح	ن	ه	ذ	ه
ك	ا	ن	ث	م	ا	ل
ب	ذ	ل	م	ذ	س	ا
ث	ا	ن	ث	ن	ه	ن
ل	ن	ث	ص	ه	ذ	ث
ه	ك	ه	ي	ذ	ا	ه
ن	ه	م	ا	ا	ن	ك
ك	ك	ر	و	ا	ن	ث

9-DARS

KA:F

ك

LA:M

ل

كَلِمَاتٌ جَدِيدَةٌ

<i>dehqon(lar) (mz)</i>	فَلَّاحٌ (فَلَّاحُونَ)
<i>yozuvchi(lar)</i>	كَاتِبٌ (كُتَّابٌ)
<i>ruchka(lar)</i>	مُسَكَّةٌ (مُسَكٌّ)
<i>qalam(lar)</i>	قَلَمٌ (أَقْلَامٌ)
<i>kitob(lar)</i>	كِتَابٌ (كُتُبٌ)
<i>kutubxona(lar)</i>	مَكْتَبَةٌ (مَكَاتِبُ)
<i>so'z(lar)</i>	كَلِمَةٌ (كَلِمَاتٌ)
<i>penal(lar)</i>	مِقْلَمَةٌ (مَقَالِمُ)
<i>sumka(lar), chamadon(lar)</i>	حَقِيبَةٌ (حَقَائِبُ)

Ko'rsatish olmoshlari

YAQINNI KO'RSATUVCHI OLMOSHLAR

ko'plik	ikkilik	birlik	jins
هَؤُلَاءِ (oqillar uchun)	هَٰذَا	هَٰذَا	mz
هَٰذِهِ (g'ayri oqillar uchun)	هَٰتَانِ	هَٰذِهِ	mn

UZOQNI KO'RSATUVCHI OLMOSHLAR

ko'plik	ikkilik	birlik	jins
أُولَٰئِكَ (oqillar uchun)	ذَٰلِكَ	ذَٰلِكَ	mz
تَٰلِكَ (g'ayri oqillar uchun)	تَٰنِكَ	تَٰلِكَ	mn

1-topshiriq. Quyidagi jummalarni o'qing, tarjima qiling, jummalardagi yaqinni ko'rsatuvchi olmoshlarni uzoqni ko'rsatuvchi olmoshlarga o'zgartiring.

مَنْ هَذَا؟ هَذَا فَلَاحٌ.

مَنْ هَذِهِ؟ هَذِهِ كَاتِبَةٌ.

مَا هَذَا؟ هَذَا كِتَابٌ.

مَا هَذِهِ؟ هَذِهِ كُتُبٌ.

مَا هَذِهِ؟ هَذِهِ مَكْتَبَةٌ.

مَنْ هَذَا؟ هَذَا كَاتِبٌ.

مَنْ هَذِهِ؟ هَذِهِ بِنْتِي.

مَا هَذَا؟ هَذَا قَلَمٌ.

مَا هَذِهِ؟ هَذِهِ أَقْلَامٌ.

مَا هَذِهِ؟ هَذِهِ مَكَاتِيبٌ.

مَنْ هَذَا؟ هَذَا خَبَّازٌ.

مَنْ هَذِهِ؟ هَذِهِ مُتَرْجِمَةٌ.

2-topshiriq. Quyidagi jimlalarni arab tiliga o‘giring.

Anavi yozuvchi ayol. Bu o‘qituvchilar. Bu – xat. Anavi – novvoy.

Bu – ruchkalar. Anavi – mening qizim. Bu – mening kitobim.

Anavi – tarjimonlar (mz). Bu – yozuvchilar (mn). Anavi – qalam. Bu – qalamlar. Anavi – kutubxona. Anavi – sumka. Bu – kutubxonalar. Anavi – dehqonlar (mz). Bu – penal. Anavi – mening ruchkalarim. Bu – qizlar. Anavi – hisobchi (mz). Bu – mening chamadonim. Anavi – uylar.

3-topshiriq. Berilgan so‘zlarning soniga qarab, nuqtalar o‘rniga uzoqni ko‘rsatuvchi olmoshlarni qo‘ying va hosil bo‘lgan ot-kesimli gaplarni tarjima qiling.

<i>Bu – ruchka.</i>	تِلْكَ مُسْكَةٌ
	... مُسَكٌّ
	... قَلَمَانِ
	... أَقْلَامٌ
	... مُحَاسِبَاتٌ
	... بَابٌ
	... أَبْوَابٌ
	... بَيْتَانِ

	... بِيُوتٌ
	... بِنْتٌ
	... بَنَاتٌ
	... حَقِيبَةٌ
	... كَاتِبَانِ
	... كُتَّابٌ
	... فَلَّاحَةٌ
	... فَلَّاحُونَ
	... كِتَابَانِ
	... حَقَائِبُ
	... كُتُبٌ
	... مُتَرْجِمَةٌ

	... مَكْتَبَةٌ
	... مَكَاتِبُ
	... مَكْتُوبَانِ
	... مَكَاتِيبُ
	... حَقِيبَتَانِ
	... كَلِمَةٌ
	... مِقْلَمَةٌ
	... مَقَالِمُ

4-topshiriq. To‘g‘ri ko‘plikdagi oqil otlar ishtirokida tuzilgan jummalarni o‘qing, tarjima qiling va birlikka aylantiring.

هُؤْلَاءِ مُدَرِّسُونَ. أُولَئِكَ مُدَرِّسَاتٌ.
أُولَئِكَ مُتَرْجِمُونَ. هُؤْلَاءِ مُتَرْجِمَاتٌ.

هُؤُلَاءِ فَنَّاوُنَ. أُولَئِكَ فَنَّاَنَاتُ.
أُولَئِكَ مُهَنْدِسُونُ. هُؤُلَاءِ مُهَنْدِسَاتُ.
هُؤُلَاءِ مُحَاسِبُونُ. أُولَئِكَ مُحَاسِبَاتُ.
أُولَئِكَ فَلَّاحُونُ. هُؤُلَاءِ فَلَّاحَاتُ.
هُؤُلَاءِ رَسَّامُونُ. أُولَئِكَ رَسَّامَاتُ.

5-topshiriq. Ko‘plikdagi g‘ayri oqil otlar ishtirokida tuzilgan jummalarni o‘qing, tarjima qiling va birlikka aylantiring.

هَذِهِ كُتُبٌ. تِلْكَ صُفُوفٌ.
هَذِهِ أَبْوَابٌ. تِلْكَ بُيُوتٌ.
هَذِهِ حَقَائِبٌ. تِلْكَ سُرُرٌ.
هَذِهِ أَقْلَامٌ. تِلْكَ مَكَاتِبٌ.
هَذِهِ مُسَكٌّ. تِلْكَ دَفَاتِرٌ.
هَذِهِ نَبَاتَاتٌ. تِلْكَ فَنَادِقُ.
هَذِهِ أَسْوَاقٌ. تِلْكَ كُتُبٌ.
هَذِهِ كَلِمَاتٌ. تِلْكَ مَقَالِمُ.
هَذِهِ هَدَايَا. تِلْكَ أَنْهَارٌ.

6-topshiriq. Berilgan ko‘rsatish olmoshlariga mos so‘zlar bering va hosil bo‘lgan jummalarni tarjima qiling.

هَذَا	هَذِهِ	هَذَانِ	هَاتَانِ
تِلْكَ	ذَلِكَ	تَانِكَ	ذَانِكَ

7-topshiriq. Quyidagi savol-javoblarni o‘qing va tarjima qiling. o‘zingiz mustaqil mana shu kabi savol-javoblar tuzing.

هَلْ so‘roq olmoshi bo‘lib, u arab tilida umumiy so‘roq gap yasovchi so‘roq olmoshi hisoblanadi.
 Bu so‘roq olmoshi o‘zbek tilidagi “-mi” so‘roq yuklamasiga to‘g‘ri keladi.

Bu kitobmi?

هَلْ هَذَا كِتَابٌ؟

هَلْ هَذَا كِتَابٌ؟ لَا، هَذَا دَفْتَرٌ.


هَلْ هُوَ لَا مُدَرِّسُونَ؟

نَعَمْ، هُوَ لَا مُدَرِّسُونَ.

هَلْ هَاتَانِ مُتَرْجِمَتَانِ؟

لَا، هَاتَانِ مُدَرِّسَتَانِ.

8-topshiriq. Birlik va ikkilikdagi ko'rsatish olmoshlarini toping.



ح	س	ذ	ك	ل	ذ	ب
ض	ه	ط	ك	ن	ا	ت
ه	ذ	ه	ص	ث	ن	ل
ل	ا	ذ	و	ر	ك	ك
ك	ن	ا	ت	ا	ه	ف

9-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Arab tilida necha xil ko'plik bor?
2. So'z oxiriga ma'lum bir qoshimchalar qo'shish orqali yasaladigan ko'plik qaysi?
3. To'g'ri ko'plik qo'shimchalarini qo'shishda so'zning jinsi ahamiyatlimi?
4. Siniq ko'plik nima?
5. Siniq ko'plikka 10 ta misol ayting.
6. To'g'ri ko'plik muzakkar jins qo'shimchasi qaysi?
7. To'g'ri ko'plik muannas jins qo'shimchasi qaysi?
8. To'g'ri ko'plik qaysi jins qo'shimchasida tanvin yo'q?
9. Ko'rsatish olmoshlari necha turga bo'linadi?
10. Ko'rsatish olmoshlari jinsda va sonda o'zgaradimi?
11. Ko'rsatish olmoshlarining ko'plik shaklida jinsga ahamiyat beriladimi?
12. Ko'rsatish olmoshlarining ko'plik shakli bilan beshta misol bering.
13. Olmoshlarning birlik shakli bilan beshta misol bering.

10-DARS

ŞO:D	DO:D	TO:	ZO:	'AYN	G'AYN
ص	ض	ط	ظ	ع	غ

كَلِمَاتٌ جَدِيدَةٌ

<i>ko'cha</i>	شَارِعٌ (شَوَارِعُ)
<i>universitet</i>	جَامِعَةٌ (جَامِعَاتُ)
<i>sinf</i>	صَفٌ (صُفُوفُ)
<i>xona</i>	غُرْفَةٌ (غُرُفُ)
<i>surat</i>	صُورَةٌ (صُورُ)
<i>chizg'ich</i>	مِسْطَرَةٌ (مَسَاطِرُ)
<i>lampa</i>	مِصْبَاحٌ (مَصَابِيحُ)
<i>stol</i>	مِنْضَدَةٌ (مَنَاضِدُ)
<i>sumka</i>	مِخْفَظَةٌ (مَحَافِظُ)
<i>soyabon</i>	مِظَلَّةٌ (مِظَلَّاتُ)

qush	طَيْرٌ (طُيُورٌ)
ko‘z	عَيْنٌ (عُيُونٌ)
do‘st	صَدِيقٌ (أَصْدِقَاءُ)
mehmon	ضَيْفٌ (ضُيُوفٌ)
hamkasb	زَمِيلٌ (زُمَلَاءُ)
talaba	طَالِبٌ (طُلَّابٌ)
o‘qituvchi	مُعَلِّمٌ (مُعَلِّمُونَ)
oshpaz	طَبَّاخٌ (طَبَّاخُونَ)
tikuvchi	خَيَّاطٌ (خَيَّاطُونَ)
suratchi	مُصَوِّرٌ (مُصَوِّرُونَ)
misrlik	مِصْرِيٌّ (مِصْرِيُّونَ)
kasal	مَرِيضٌ (مَرَضَى)
Misr	مِصْرٌ

<i>kichik</i>	صَغِيرٌ
<i>faol</i>	نَشِيطٌ
<i>toza</i>	نَظِيفٌ
<i>zaif, kuchsiz</i>	ضَعِيفٌ
<i>tor</i>	ضَيِّقٌ

ALIF MAQSURA

Arab tilida ayrim soʻzlar oxiridagi “a:” choʻziq unlisi **ya: harfi** orqali ifodalanadi. Bunda soʻz oxiridagi belgi va harakatlarsiz kelgan ya: harfi oʻzidan oldingi undosh harf ustida turgan fatha harakatini choʻzishga xizmat qiladi. Bu vazifada kelgan ya: harfi **alif maqsura**, yaʼni **qisqartirilgan alif** deyiladi. Bu holat faqat soʻz oxirida kuzatiladi. Bu kabi soʻzlar **kelishiklarda turlanmaydigan soʻzlar** boʻlib, ular har uch kelishikda ham bir xil boʻladi. Alif maqsura vazifasidagi ya: harfi ishtirok etgan soʻzlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

<i>shifoxona</i>	مُسْتَشْفَى	<i>xotira</i>	ذِكْرَى
<i>fatvo</i>	فَتْوَى	<i>xushxabar</i>	بُشْرَى
<i>qishloqlar</i>	قُرَى	<i>kasallar</i>	مَرَضَى
<i>Muso</i>	مُوسَى	<i>Mustafo</i>	مُصْطَفَى



Qat'iy hamza. Arab tildagi qat'iy hamza belgisi (') o'zbek tilida mustaqil fonema hisoblanmaydi va o'zbek tilida ma'lum bir harf orqali ifodalanmaydi. Arab tilida esa bu o'ziga xos mustaqil undosh fonemadir. Hamza belgisi fatha, kasra, damma harakatlari yoki sukun belgisi bilan harakatlanishi mumkin. Qisqa unlilarni ifodalovchi harakatlar bilan harakatlanganda, hamzaning talaffuzi unlilar talaffuziga qo'shilib, u qadar sezilmaydi. Hamza sukun belgisini olganda, uning talaffuzi aniq seziladi, bunda uning talaffuzi yengilgina o'tadigan yo'talga o'xshab ketadi.



Qat'iy hamza belgisi yozuvda **ba'zan o'zi** yozilsa, **ba'zan alif, ya: yoki va:v tayanch harflari ustiga** yoziladi.



Soʻz tarkibida kelayotgan hamza belgisini toʻgʻri yozish uchun uning imlo qoidalarini bilish talab etiladi.



Soʻz boshida kelgan hamza belgisi imlosi



Soʻz oʻrtasida kelgan hamza belgisi imlosi



Soʻz oxirida kelgan hamza belgisi imlosi

Soʻz boshida kelgan hamza belgisi imlosi. Soʻz boshida kelgan hamza belgisi imlosiga oid ayrim qoidalarni biz oldingi darslarimizda misollar vositasida koʻrib chiqqan edik. Unga koʻra, *hamza belgisi soʻz boshida kelganda, unga doim alif harfi tayanch boʻladi. Soʻz boshida kelayotgan hamza belgisi fatha, kasra yoki damma harakatlaridan biri bilan birga keladi va qisqa unlilarga mos tarzda “a”, “i” yoki “u” tarzida talaffuz qilinadi. Yozuvda ham hamza belgisi qisqa unlilarning joylashuviga mos tarzda beriladi, yaʼni hamza belgisi fatha yoki damma bilan kelsa, alifning ustiga, kasra harakati bilan birga kelsa, alifning tagiga qoʻyiladi.*

Hamza belgisining soʻz boshida damma bilan kelishi		Hamza belgisining soʻz boshida kasra bilan kelishi		Hamza belgisining soʻz boshida fatha bilan kelishi	
opa	أَخْتٌ	inson	إِنْسَانٌ	qalamlar	أَقْلَامٌ
ummat	أُمَّةٌ	imkon	إِمْكَانٌ	daraxtlar	أَشْجَارٌ
quloq	أُذُنٌ	igna	إِبْرَةٌ	adabiyot	أَدَبٌ

Soʻz oʻrtasida kelgan hamza belgisi imlosi. Soʻz oʻrtasida kelgan hamza belgisini toʻgʻri yozish uchun “*unlilar katta kichikligi*” qoidasiga amal qilinadi. Bu qoidaga binoan unlilar quyidagi ketma-ketlikka ega:

i > u > a > sukun

Demak, eng katta unli bu “i” unlisi boʻlsa, eng kichigi “a” unlisi ekan. Soʻz oʻrtasida kelgan hamza belgisiga tayanch harf tanlashda hamza belgisining ikki yonidagi unlilar solishtiriladi, qaysi unli kuchli boʻlsa, hamzaga aynan oʻsha unliga mos harf tayanch harf vazifasini bajaradi. Tayanch harf vazifasini bajarayotgan harf hech qanday tovush ifodalamaydi.

savol



سؤال

Berilgan soʻzga eʼtibor bersak, hamzadan oldingi unli “u” – damma, hamzadan keyingi unli “a” – fatha. har ikki unlini taqqoslasak, “u” unlisi “a” unlisidan katta hisoblanadi: **u > a**. Demak, bu yerda hamza belgisiga “u” unlisini ifodalovchi **va:v harfi tayanch harf** vazifasini bajaradi.

Hamza belgisining soʻz oʻrtasida kelishi			
savol	سؤال	ayol	مَرَأَة
masala	مَسْأَلَة	bolta (mn)	فَأْس
tarix	تَارِيْخ	boʻri	ذِئْب
muannas jins	مُؤَنَّث	quduq (mn)	بُئْر
prezident	رَئِيس	bosh	رَأْس
tarixchi	مُؤَرِّخ	anjuman	مُؤْتَمَر

So‘z oxirida kelgan hamza belgisi imlosi. So‘z oxirida kelayotgan hamzadan oldin sukunli undosh harf yoki cho‘ziq unli bo‘lsa, hamza belgisi tayanch harflarsiz, mustaqil holda yoziladi.

<i>narsa</i>	شَيْءٌ	<i>imlo</i>	إِمْلَاءٌ
<i>qism</i>	جُزْءٌ	<i>uchrashuv</i>	لِقَاءٌ
<i>nur</i>	ضَوْءٌ	<i>bo‘ri</i>	مَاءٌ

Agar so‘z oxiridagi hamza qisqa unlidan keyin kelsa, u holda o‘sha unliga mos harf hamzaga tayanch bo‘ladi.

<i>jur‘atli bo‘lmoq</i>	جُرُوءٌ	<i>o‘qilmoq</i>	قُرِئَ	<i>o‘qimoq</i>	قَرَأَ
-----------------------------	---------	-----------------	--------	----------------	--------

Vaslali hamza. Arab tilida shunday so‘zlar borki, ularning birinchi bo‘g‘ini yonma-yon turgan ikki undosh bilan boshlangan. Quyida keltirilgan so‘zlar bunga misol bo‘ladi:

<i>bnun</i>	بْنٌ	<i>o‘g‘il</i>
<i>bnatun</i>	بِنَةٌ	<i>qiz</i>
<i>smun</i>	سَمٌ	<i>ism</i>
<i>mra‘atun</i>	مَرَأَةٌ	<i>ayol</i>
<i>sna:ni</i>	ثَنَانٌ	<i>ikki</i>

Misollardan ko‘rib turganingizdek, bu holat, ya‘ni birinchi bo‘g‘inda ikkita undoshning yonma-yon kelishi so‘zning

o‘qilishini qiyinlashtiradi. Shu bois bu kabi so‘zlarning o‘qilishini osonlashtirish maqsadida bu kabi so‘zlarning boshiga vaslali hamza qo‘yiladi. Yozuvda vaslali hamza alif harfi yordamida ifodalanadi. Agar vaslali hamza olgan so‘z o‘zi alohida kelsa, yoki biror gapning boshida kelsa, vaslali hamza kasra harakatini olgan qat’iy hamza kabi “i” tarzida talaffuz qilinadi.

<i>ibnun</i>	ابْنٌ	←	<i>bnun</i>	بَنْ
<i>ibnatun</i>	ابْنَةٌ	←	<i>bnatun</i>	بْنَةٌ
<i>ismun</i>	إِسْمٌ	←	<i>smun</i>	سَمٌ
<i>imra’atun</i>	إِمْرَأَةٌ	←	<i>mra’atun</i>	مَرَأَةٌ
<i>isna:ni</i>	إِثْنَانِ	←	<i>sna:ni</i>	ثَنَانِ

Vaslali hamza so‘zning o‘zagi tarkibiga kirmaydi. Shu bois vaslali hamza olgan so‘z gapning o‘rtasida yoki oxirida kelsa, vaslali hamza o‘qilmaydi. Quyidagi misollarda berilganidek, u o‘zidan oldingi harf unlisi bilan birlashtirilib o‘qiladi, ya’ni o‘zidan oldingi so‘zga vasl qilinadi. Bu holatda vaslali hamza sifatida berilgan alif harfi ustiga vasla belgisi qo‘yiladi.

<i>Bu - o‘g‘lim Ahmad.</i>	<i>Ha:zabni: Ahmad</i>	هَذَا ابْنِي أَحْمَدَ.
<i>Anavi – qizim Maryam.</i>	<i>Tilkabnati: Maryam</i>	تِلْكَ ابْنَتِي مَرْيَمَ.
<i>Isming nima?</i>	<i>Masmuk?</i>	مَا اسْمُكَ؟

Vaslali hamza ifodalovchi alif harfi yozuvda tushib qolmaydi, biroq quyidagi uchta holat bundan mustasno.

1-HOLAT

لِلَّهِ	=	لِ	+	اللَّهُ
“Alloh uchun” iborasi	=	“uchun” predlogi	+	“Alloh” so‘zi

2-HOLAT

بِسْمِ	=	بِ	+	إِسْمِ
“Ismi bilan” iborasi	=	“bilan” predlogi	+	“ism” so‘zi

3-HOLAT

ابْنُ so‘zi ikkita atoqli ot o‘rtasida kelganda, vaslali hamzani ifodalovchi alif tushib qoladi.

زَيْدُ بْنُ ثَابِتٍ

Zayd ibn Sobit

أَبُو عَلِيٍّ بْنِ سِينَا

Abu Ali ibn Sino

1-topshiriq. Qat’iy hamza belgisi ishtirok etgan quyidagi so‘zlarni arab imlosida bering.

ma’ku:lun	mu’mina:tun	’as’ilatun	mi’atun
’afidatun	mu’assasatun	mu’minu:na	ta’di:bun
’avliya:’u	mu’arrixatun	tahni’atun	shay’un

11-DARS

SHAMSIY VA QAMARIY HARFLAR

Alifbodagi 28 ta harf
ikki guruhga bo'linadi

shamsiy harflar
14 ta

qamariy harflar
14 ta

quyosh harflar

oy harflar

al-hurufu-sh-
shamsiyya

al-hurufu-l-
qamariyya



ث	ش
ث	ص
د	ض
ذ	ط
ر	ظ
ز	ل
س	ن



ا	ف
ب	ق
ج	ك
ح	م
خ	ه
ع	و
غ	ي



Ma'lumki, nutq davomida gaplardagi predmet yoki shaxsni ifodalovchi so'zlar noaniq yoki aniq holatda kelishi mumkin. so'zning aniq holatda ekanligiga ishora qiluvchi belgi bu – "al" aniqlik artikli hisoblanadi. Demak, noaniq holatdagi so'zni aniq holatga aylantirish uchun so'z boshiga "al" aniqlik artikli qo'shiladi. Aniqlik artikli so'zga qo'shib yoziladi. "Al" aniqlik artiklini olgan so'z oxiridan tanvin belgisi tushib qoladi.

Mazkur grammatik kategoriyasi ingliz tilidagi holat kategoriyasi bilan taqqoslagan holda o'rganish qulay. Sababi ingliz tilida ham noaniq va aniq holat mavjud. Arab tilidan farqli jihat, ingliz tilda ham noaniqlik, ham aniqlik artikli bor. Arab tilida esa faqat aniqlik artikli mavjud.

<i>aniq holat</i>			<i>noaniq holat</i>		
<i>inglizcha</i>	<i>o'zbekcha</i>	<i>arabcha</i>	<i>inglizcha</i>	<i>o'zbekcha</i>	<i>arabcha</i>
<i>the book</i>	<i>(aniq, ma'lum) kitob</i>	اَلْكِتَابُ	<i>a book</i>	<i>(qandaydir noma'lum) kitob</i>	كِتَابٌ
<i>the pen</i>	<i>(aniq, ma'lum) ruchka</i>	اَلْمُسْكَةُ	<i>a pen</i>	<i>(qandaydir noma'lum) ruchka</i>	مُسْكَةٌ
<i>the teacher</i>	<i>(aniq, ma'lum) o'qituvchi</i>	اَلْمُدَّرِّسُ	<i>a teacher</i>	<i>(qandaydir noma'lum) o'qituvchi</i>	مُدَّرِّسٌ

“Al” aniqlik artiklini olgan soʻzni toʻgʻri oʻqish uchun alifbodagi harflarning qamariy va shamsiy guruhga mansubligini bilish kerak. Artikl olgan soʻzning birinchi harfi qamariy harf boʻlsa, artikldagi la:m harfi oʻqiladi va ustiga sukun belgisi qoʻyiladi.

Aniq holat			Noaniq holat	
oʻqilishi	arabcha	oʻzbekcha	oʻqilishi	arabcha
[al-bahru]	الْبَحْرُ	dengiz	[bahrun]	بَحْرٌ
[al-madinatu]	الْمَدِينَةُ	shahar	[madinatun]	مَدِينَةٌ
[al-hadyatu]	الْهَدِيَّةُ	sovgʻa	[hadyatun]	هَدِيَّةٌ

Artikl olgan soʻzning birinchi harfi shamsiy harf boʻlsa, artikldagi la:m harfi oʻqilmaydi va ustiga sukun belgisi ham qoʻyilmaydi. La:m harfi oʻrniga soʻzning birinchi harfi, yaʼni shamsiy harf tashdidlantiriladi (ikkilantiriladi).

Aniq holat			Noaniq holat	
oʻqilishi	arabcha	oʻzbekcha	oʻqilishi	arabcha
[an-nahru]	النَّهْرُ	daryo	[nahrn]	نَهْرٌ
[ash-shajaratu]	الشَّجَرَةُ	daraxt	[shajaratun]	شَجَرَةٌ
[as-sariru]	السَّرِيرُ	daraxt	[sarirun]	سَرِيرٌ

			
ا	الْأَرْزَبُ	ت	التَّمْرِينُ
ب	الْبَيْتُ	ث	الثَّوبُ
ج	الْجَامِعَةُ	د	الدَّفْتَرُ
ح	الْحَقِيبَةُ	ذ	الذِّكْرَى
خ	الْخِيَّاطُ	ر	الرَّسَامُ
ع	الْعَيْنُ	ز	الزَّمِيلُ
غ	الْغُرْفَةُ	س	السَّيَّارَةُ
ف	الْفُنْدُقُ	ش	الشَّارِعُ
ق	الْقَلَمُ	ص	الصُّورَةُ
ك	الْكِتَابُ	ض	الضَّيْفُ
م	الْمِسْطَرَّةُ	ط	الطَّيْرُ
ه	الْهَدِيَّةُ	ظ	الظَّرْفُ
و	الْوَرْدُ	ل	اللَّوْحُ
ي	الْيَدُ	ن	النَّاسُ


1-topshiriq. Qamariy harflarni yashilga, shamsiy harflarni qizil rangga bo‘yang.

ح	س	ذ	ر	ب
ض	ه	ط	ى	ز
ظ	د	ق	ص	ث
ل	م	ش	و	ر
ك	ت	ن	ص	ف

2-topshiriq. Qamariy harflarni yashilga, shamsiy harflarni qizil rangga bo‘yang.

ل	ج	ب	ق	ث
ق	ن	ى	س	ح
ا	ع	ش	ك	م
ى	ز	خ	ر	و
ط	غ	ف	ى	ض

3-topshiriq. Soʻzning birinchi harfi qamariy yoki shamsiy harfligiga eʼtibor bergan holda ustunlardan ortiqcha soʻzni toping.



				
مُعَلِّمُونَ	خَيَّاطٌ	مَسَاطِرُ	صُفُوفٌ	غُرْفَةٌ
عُيُونٌ	شَارِعٌ	غُرْفٌ	عَيْنٌ	مِصْرِيُّونَ
جَامِعَةٌ	صَغِيرٌ	مَنَاضِدُ	صُورَةٌ	نَظِيفٌ
طُيُورٌ	صُورٌ	جَامِعَاتٌ	ضَيْقٌ	مَرِيضٌ
مُصَوِّرٌ	نَشِيطٌ	طُلَّابٌ	ضَعِيفٌ	أَصْدِقَاءُ

4-topshiriq. Quyidagi soʻzlarga “al” aniqlik artiklini qoʻshib, soʻzning birinchi harfiga eʼtibor bergan holda, shamsiy va qamariy ustunlarga ajrating.

مُعَلِّمُونَ	خَيَّاطٌ	مَسَاطِرُ	صُفُوفٌ	غُرْفَةٌ
عُيُونٌ	شَارِعٌ	غُرْفٌ	عَيْنٌ	مِصْرِيُّونَ

نَظِيفٌ	صُورَةٌ	مَنَاضِدُ	صَغِيرٌ	جَامِعَةٌ
مَرِيضٌ	ضَيْقٌ	جَامِعَاتٌ	صُورٌ	طُيُورٌ
أَصْدِقَاءُ	ضَعِيفٌ	طُلَّابٌ	نَشِيطٌ	مُصَوِّرٌ
طَالِبٌ	صَدِيقٌ	صَفٌّ	مِظَلَّةٌ	طَيْرٌ

5-topshiriq. Rasmlardagi soʻzlarni noaniq va aniq holatda yozing.

			
هَدِيَّةٌ / اَلْهَدِيَّةُ			
			

12-DARS

ARAB TILIDA O‘ZAK TUSHUNCHASI

Arab tilida so‘zning o‘zagi undosh tovushlardangina iborat bo‘ladi. O‘zakni tashkil etuvchi undosh tovushlar **o‘zak undoshlar** deyiladi. O‘zak undoshlar so‘zdagi umumiy ma‘noni ifodalaydi. O‘zak undoshlarning oldiga, orasiga yoki oxiriga unli va noo‘zak undoshlarni qo‘shilishidan so‘zlar hosil bo‘ladi.



Keltirilgan misolda asosiy ma‘no beruvchi o‘zak so‘z bu **“darasa”** so‘zi bo‘lib, u **“o‘rganmoq”** degan ma‘noni anglatadi. Undan yasalgan **“dars”**, **“madrasa”**, **“mudarris”**, **“mudarrisa”** so‘zlarida esa aynan o‘zak so‘zda aks etgan ma‘no mavjud. **“Dars”** - o‘rganish jarayoni, **“madrasa”** – biror ilm o‘rganiladigan joy, **“mudarris”**, **“mudarrisa”** – ilmni o‘rgatadigan shaxs.



Quyida berilgan **“xalaqa”** o‘zagidan hosil bo‘lgan so‘zlar o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlar ekanligi hosila so‘zlarda o‘zakni tashkil etuvchi undoshlarni osongina aniqlash imkonini beradi.



Arab tilida hosila soʻzning oʻzagini tez aniqlash muhim hisoblanadi, chunki soʻzni lugʻatdan topishda faqatgina uning oʻzagiga murojaat qilinadi, masalan, “**dars**”, “**madrasa**”, “**mudarris**”, “**mudarrisa**” soʻzlarining barchasi “**darasa**” lugʻat maqolasida berilgan boʻladi.


1-topshiriq. Quyidagi hosila soʻzlar uchun umumiy boʻlgan oʻzak undoshlarni toping.





NOO‘ZAK HARFLAR

Demak, so‘z o‘zakni tashkil etuvchi undoshlar, ya‘ni **o‘zak undoshlar** va *o‘zak tarkibiga kirmaydigan unli va undosh harflar*, ya‘ni **noo‘zak undoshlardan** iborat bo‘ladi. Arab tilida o‘zak tarkibiga kirmaydigan unli va undoshlarni ifodalaydigan harflar soni 10 ta bo‘lib, ular *noo‘zak harflar deb nomlanadi. Ular quyidagilar:*



Arab tilida mazkur o‘ntalik esda oson saqlanib qolishi uchun bu harflardan quyidagi jumla yasalgan bo‘lib, u o‘zbek tiliga “**Bugun sen uni unutasan**”, deb tarjima qilinadi:

الْيَوْمَ تَنْسَاهُ

SO‘Z VAZNLARI

Har bir grammatik kategoriya arab tilida o‘zining **vazn** deb atalmish muayyan shakliga ega. Uch o‘zak undoshli so‘zlarning vazniga asos qilib quyidagi harflar olingan:

ل	ع	ف
3- o‘zak undosh	2-o‘zak undosh	1-o‘zak undosh

Ma‘lum bir so‘zning vaznini aniqlash uchun dastlab o‘sha so‘zning o‘zak undoshlarini aniqlab olish kerak. Misol tariqasida, “**mashhur**” so‘zining vaznini aniqlaymiz:

مَشْهُورٌ		
ر	ه	ش
3-o‘zak undosh	2-o‘zak undosh	1-o‘zak undosh

Demak, “*mashhur*” so‘zining vazni “*shahara*” ekan. Endi o‘zak undoshlar, ya’ni **shi:n**, **ha:**, **ro: harflari** o‘rniga tartibni buzmagani holda vaznlar uchun shartli ravishda qabul qilingan uch undoshni qo‘yamiz, ya’ni **1-o‘zak undosh o‘rniga fa:**, **2-o‘zak undosh o‘rniga ‘ayn**, **3-o‘zak undosh o‘rniga la:m** harflarini qo‘yish kerak. Bunda harakat va belgilar hamda noo‘zak harflar o‘z o‘rnida qoladi:

مَشْهُورٌ		
ر	ه	ش
3-o‘zak undosh	2-o‘zak undosh	1-o‘zak undosh
↓	↓	↓
ل	ع	ف
3-o‘zak undosh	2-o‘zak undosh	1-o‘zak undosh
مَفْعُولٌ		


Demak, “*mashhu:run*” so‘zining vazni “*maf’u:lun*” ekan.




2-topshiriq. Quyida “ ’alima” o‘zak undoshlaridan yasalgan hosila so‘zlarning vaznlariga e‘tibor bering.

<i>so‘z vazni</i>	<i>hosila so‘zlar</i>	
فِعْلٌ ²⁸	ilm	عِلْمٌ ²⁸
فِعْلِيٌّ ²⁸	ilmiy	عِلْمِيٌّ ²⁸
فَاعِلٌ ²⁸	olim	عَالِمٌ ²⁸
فَاعِلٌ ²⁸	olam	عَالَمٌ ²⁸
مَفْعُولٌ ²⁸	ma'lum	مَعْلُومٌ ²⁸
تَفْعِيلٌ ²⁸	ta'lim	تَعْلِيمٌ ²⁸
مُفَعِّلٌ ²⁸	muallim	مُعَلِّمٌ ²⁸
تَفْعِيلِيٌّ ²⁸	ta'limiy	تَعْلِيمِيٌّ ²⁸
تَفْعِيلَاتٌ ²⁸	ta'limot	تَعْلِيمَاتٌ ²⁸
فَعَّالَةٌ ²⁸	alloma	عَلَّامَةٌ ²⁸
مَفْعُولَاتٌ ²⁸	ma'lumot	مَعْلُومَاتٌ ²⁸
فَعَّالَةٌ ²⁸	alomat	عَلَامَةٌ ²⁸

3-topshiriq. Quyida berilgan “ذكر”, “خرج”, “حمد” o‘zaklaridan yasalgan hosila so‘zlarning vaznini aniqlang.



4-topshiriq. “نطق”, “نقش”, “حمد”, “نفس”, “نسب”, “نظم” o‘zaklarini quyida berilgan vaznlarga solib, hosila so‘zlar yasang.



5-topshiriq. Quyidagi namuna asosida uch o‘zak undoshli fe’llarni berilgan vaznlarga soling.

مَفْعُولٌ

كتب	حكم	حمد	فتن	شهر	ملك
↓	↓	↓	↓	↓	↓
مَكْتُوبٌ	مَحْكُومٌ	مَحْمُودٌ	مَفْتُونٌ	مَشْهُورٌ	مَمْلُوكٌ

مَفْعِلٌ

نزل	غرب	شرق	سجد	جلس
-----	-----	-----	-----	-----

مَفْعَلَةٌ

قبر	طبع	حكم	كتب	درس
-----	-----	-----	-----	-----

فَاعِلٌ

كمل	مهر	حكم	كتب	طلب
-----	-----	-----	-----	-----

13-DARS

SIFAT

ASLIY SIFAT

NISBIY SIFAT


ASLIY SIFATLAR

<i>toza</i>	نَظِيفٌ	<i>katta</i>	كَبِيرٌ
<i>kir</i>	وَسِخٌ	<i>kichik</i>	صَغِيرٌ
<i>uzun</i>	طَوِيلٌ	<i>yangi</i>	جَدِيدٌ
<i>tor</i>	قَصِيرٌ	<i>eski</i>	قَدِيمٌ
<i>issiq</i>	حَارٌّ	<i>keng</i>	وَاسِعٌ
<i>sovuq</i>	بَارِدٌ	<i>tor</i>	ضَيِّقٌ
<i>qorong'i</i>	غَامِضٌ	<i>semiz</i>	سَمِينٌ
<i>yorug'</i>	نَيِّرٌ	<i>ozg'in</i>	نَحِيفٌ
<i>ochiq</i>	مَفْتُوحٌ	<i>kuchli</i>	قَوِيٌّ
<i>yopiq</i>	مَقْفُولٌ	<i>kuchsiz</i>	ضَعِيفٌ

<i>mashhur</i>	مَشْهُورٌ	<i>qiyin</i>	صَعْبٌ
<i>faol</i>	نَشِيطٌ	<i>oson</i>	سَهْلٌ
<i>tirishqoq</i>	مُجْتَهِدٌ	<i>mazali</i>	لَذِيذٌ
<i>foydali</i>	مُفِيدٌ	<i>nordon</i>	حَامِضٌ
<i>qiziqarli</i>	مُمْتَعٌ	<i>achchiq</i>	مُرٌّ
<i>muhim</i>	مُهْمٌ	<i>yaqin</i>	قَرِيبٌ
<i>xursand</i>	مَسْرُورٌ	<i>uzoq</i>	بَعِيدٌ
<i>chiroyli</i>	جَمِيلٌ	<i>mohir</i>	مَاهِرٌ

NISBIY SIFAT

Nisbiy sifatlar otlarga [iyyun] qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi. Masalan:



Arab tilida sifatlar ham xuddi otlar kabi jinsda, sonda, holatda va kelishiklarda o‘zgarish xususiyatiga ega. Buni kelasi darsda batafsil ko‘rib chiqamiz.

1-topshiriq. Quyida berilgan otlardan namuna asosida nisbiy sifat yasang.

<i>Nisbiy sifat</i>		<i>Ot</i>	
<i>o‘zbekcha</i>	<i>arabcha</i>	<i>arabcha</i>	<i>o‘zbekcha</i>
<i>yog‘och</i>	خَشَبِيّ	خَشَبٌ	<i>yog‘och</i>
<i>tilla</i>		ذَهَبٌ	<i>oltin</i>
<i>shimoliy</i>		شِمَالٌ	<i>shimol</i>
		جَنُوبٌ	<i>janub</i>
		غَرْبٌ	<i>g‘arb</i>
		شَرْقٌ	<i>sharq</i>
		مِصْرٌ	<i>Misr</i>
		عَرَبٌ	<i>arab</i>
		أُوزْبَكٌ	<i>o‘zbek</i>
		إِنْجِلِيزٌ	<i>ingliz</i>
		عِلْمٌ	<i>ilm</i>
		دِينٌ	<i>din</i>

		إِسْلَامٌ	<i>islom</i>
		يَوْمٌ	<i>kun</i>
		شَهْرٌ	<i>oy</i>
		حَرْبٌ	<i>urush</i>
		طَبٌّ	<i>tibbiyot</i>

**DAVLAT NOMLARI VA
ULARDAN YASALGAN NISBIY SIFATLAR**

<i>Nisbiy sifat</i>			<i>Davlat nomi</i>	
	<i>mn</i>	<i>mz</i>		
<i>o'zbek</i>	أُوزْبَكِيَّةٌ	أُوزْبَكِيٌّ	<i>O'zbekiston</i>	أُوزْبَكِسْتَانُ
<i>turk</i>	تُرْكِيَّةٌ	تُرْكِيٌّ	<i>Turkiya</i>	تُرْكِيَا
<i>liviyalik</i>	لِيبِيَّةٌ	لِيبِيٌّ	<i>Liviya</i>	لِيبِيَا
<i>misrlik</i>	مِصْرِيَّةٌ	مِصْرِيٌّ	<i>Misr</i>	مِصْرُ
<i>iroqlik</i>	عِرَاقِيَّةٌ	عِرَاقِيٌّ	<i>Iroq</i>	الْعِرَاقُ

<i>suriyalik</i>	سُورِيَّةٌ	سُورِيٌّ	<i>Suriya</i>	سُورِيَا
<i>rus</i>	رُوسِيَّةٌ	رُوسِيٌّ	<i>Rossiya</i>	رُوسِيَا
<i>marokashlik</i>	مَغْرِبِيَّةٌ	مَغْرِبِيٌّ	<i>Marokash</i>	الْمَغْرِبُ

RANGNI IFODALOVCHI ASLIY SIFATLAR

<i>tarjima</i>	<i>muannas</i>	<i>muzakkar</i>
<i>oq</i>	بَيْضَاءُ	أَبْيَضُ
<i>qora</i>	سَوْدَاءُ	أَسْوَدُ
<i>ko'k</i>	زَرْقَاءُ	أَزْرَقُ
<i>yashil</i>	خَضِرَاءُ	أَخْضَرُ
<i>sariq</i>	صَفْرَاءُ	أَصْفَرُ
<i>qizil</i>	حَمْرَاءُ	أَحْمَرُ

RANGNI IFODALOVCHI NISBIY SIFATLAR

<i>nisbiy sifat mz</i>		<i>ot</i>		
<i>olovrang</i>	بُرْتُقَالِيٌّ	<i>apelsin</i>	بُرْتُقَالٌ	
<i>jigarrang</i>	بُنِّيٌّ	<i>qahva donasi</i>	بُنٌّ	
<i>siyohrang</i>	بَنْفَسَجِيٌّ	<i>binafsha</i>	بَنْفَسَجٌ	
<i>kulrang</i>	رَمَادِيٌّ	<i>kul</i>	رَمَادٌ	
<i>pushti</i>	وَرْدِيٌّ	<i>atirgul</i>	وَرْدٌ	

Eslatma: rangni ifodalovchi nisbiy sifatlarning muannas jins shakli muzakkar jins shakli oxiriga tamarbuta harfini qo‘shish orqali yasaladi.

<i>tarjima</i>	<i>muannas</i>	<i>muzakkar</i>
<i>olovrang</i>	بُرْتُقَالِيَّةٌ	بُرْتُقَالِيٌّ

2-topshiriq. Quyidagi asliy sifatlarni antonimi bilan bog‘lang.

ضَيِّقٌ ²⁸		كَبِيرٌ ²⁸
ضَعِيفٌ ²⁸		نَظِيفٌ ²⁸
طَوِيلٌ ²⁸		وَاسِعٌ ²⁸
نَحِيفٌ ²⁸		سَمِينٌ ²⁸
بَعِيدٌ ²⁸		قَوِيٌّ ²⁸
صَغِيرٌ ²⁸		مَفْتُوحٌ ²⁸
مَقْفُولٌ ²⁸		صَعَبٌ ²⁸
غَامِضٌ ²⁸		قَرِيبٌ ²⁸
سَهْلٌ ²⁸		بَارِدٌ ²⁸
حَارٌّ ²⁸		قَصِيرٌ ²⁸
قَدِيمٌ ²⁸		نَيِّرٌ ²⁸
وَسِخٌ ²⁸		جَدِيدٌ ²⁸

MOSLASHGAN ANIQLOVCHI

Arab tilidagi moslashgan aniqlovchili soʻz birikmasi oʻzbek tilidagi sifatlovchi aniqlovchi ishtirok etgan soʻz birikmasi kabi boʻladi. Masalan, *chiroyli qiz*, *katta shahar*, *yangi universitet*.

Oʻzbek tilida
SIFATLOVCHI
ANIQLOVCHI

Arab tilida
MOSLASHGAN
ANIQLOVCHI

Mazkur soʻz birikmasining arab tilida bunday nomlanishiga sabab oʻzbek tilidan farqli oʻlaroq arab tilida oldin aniqlanmish, undan soʻz aniqlovchi kelib, aniqlovchi aniqlanmish bilan quyidagi **toʻrtta kategoriyada** moslashadi:

jins

son

kelishik

holat

Oʻzbek tilida
ANIQLOVCHI +
ANIQLANMISH

Arab tilida
ANIQLANMISH +
ANIQLOVCHI

Oʻzbek tilida
YANGI KITOB

Arab tilida
كِتَابٌ جَدِيدٌ

yangi kitob

كِتَابٌ جَدِيدٌ

yangi kitobni

كِتَابًا جَدِيدًا

yangi kitob

الْكِتَابُ الْجَدِيدُ

yangi kitobni

الْكِتَابُ الْجَدِيدَ

2ta yangi kitob

كِتَابَانِ جَدِيدَانِ

yangi kitobning

كِتَابٍ جَدِيدٍ

yangi kitoblari

كُتُبٌ جَدِيدَةٌ

yangi kitobning

الْكِتَابِ الْجَدِيدِ

Eslatma: Arab tilida **gʻayri oqil otlarning koʻplik shakli muannas jins** hisoblanadi. Bunda soʻzning birlik shaklining jinsi ahamiyatsiz.

KO‘PLIK		BIRLIK	
<i>Katta bozorlar</i> (mn)	أَسْوَاقٌ كَبِيرَةٌ	<i>Katta bozor</i> (mz)	سُوقٌ كَبِيرٌ
<i>Eski maktablar</i> (mn)	مَدَارِسُ قَدِيمَةٌ	<i>Eski maktab</i> (mn)	مَدْرَسَةٌ قَدِيمَةٌ
<i>Oson darslar</i> (mn)	دُرُوسٌ سَهْلَةٌ	<i>Oson dars</i> (mz)	دَرْسٌ سَهْلٌ
<i>Yorug ‘xonalar</i> (mn)	غُرُفٌ نَيِّرَةٌ	<i>Yorug ‘xona</i> (mn)	غُرْفَةٌ نَيِّرَةٌ
<i>Yangi uylar</i> (mn)	بُيُوتٌ جَدِيدَةٌ	<i>Yangi uy</i> (mz)	بَيْتٌ جَدِيدٌ

Eslatma: “Al” aniqlik artiklidagi alif harfi aslida vaslali hamzaga tayanch harf hisoblanadi. Shuning uchun artikl olgan so‘z biror bir so‘zdan keyin kelsa, artikldagi vaslali hamza talaffuz qilinmaydi. Vaslali hamzaga tayanch bo‘lgan alif harfi yozuvda saqlanadi. Moslashgan aniqlovchili so‘z birikma ham aniq holatda kelgan bo‘lsa, mana shu qoidaga amal qilinadi:

<i>Katta bozor</i>	[as-su:qu-l-kabi:ru]	السُّوقُ الْكَبِيرُ
<i>Eski maktab</i>	[al-madrasatu-l-qadi:matu]	الْمَدْرَسَةُ الْقَدِيمَةُ
<i>Oson dars</i>	[ad-darsu-s-sahlu]	الدَّرْسُ السَّهْلُ
<i>Yorug ‘xona</i>	[al-g ‘urfatu-n-nayyiratu]	الْغُرْفَةُ النَّيِّرَةُ

3-topshiriq. Quydagi jumlalarni tarjima qiling.

Toza ko'cha. Yangi universitet. Arabcha kitob. Keng sinf. Semiz oshpaz (mz). Kuchli o'qituvchi. Sharqiy xona. Eski rasm. Yog'och chizg'ich. Chiroyli lampa. Yog'och stol. Kichkina sumka. Katta soyabon. Tor ko'cha. Tibbiyot universiteti. O'zbekcha lug'at. Tor sinf. Ruscha lug'at. Qorong'i xona. Qiyin mashq. Oson matn. Ilmiy kitob. Yorug' lampa. Janubiy davlat. G'arbiy shahar. Uzoq dengiz. Yaqin qishloq. Foydali kitob. Qiziqarli hikoya. Mashhur shahar. Katta daraxt. Yangi telefon. Mashhur do'kon.

4-topshiriq. Namuna asosida jadvalni to'ldiring. Berilgan aniqlanmishlarga mos keladigan aniqlovchini bering va hosil bo'lgan so'z birikmasini o'zbek tiliga tarjima qiling.

<i>o'zbekcha</i>	<i>aniqlovchi</i>	<i>aniqlanmish</i>
<i>yorug' sinf</i>	نَيْرٌ	صَفٌّ
		النَّوَافِدُ
		غُرْفَةٌ
		أَقْلَامٌ
		خِزَانَتَانِ
		صُورٌ
		بَابٌ

		صَفَّانٍ
		الْجِدَارُ
		مِصْبَاحٌ
		صُفُوفٌ
		لَوْحٌ
		جُذْرٌ
		الصُّورَةُ
		أَبْوَابٌ
		كِتَابٌ
		مَصَائِيحُ
		قَلَمٌ
		الْغُرْفُ
		كُتُبٌ
		غُرَفَتَانِ

		الْمُسْكَةُ
		نَافِذَةٌ
		مَكَاتِبُ
		لَوْحَانِ
		السَّبُّورَةُ
		دُرُوسٌ
		بَيْتٌ
		الْمِصْبَاحَانِ
		كَرَاسِيٌّ
		مَكْتَبَةٌ
		سَبُّورَاتٍ
		دَرْسٌ
		الْبِنْتَانِ
		بُيُوتٌ

5-topshiriq. Quyidagi moslashgan aniqlovchilarni tez va ifodali o‘qing. So‘z birikmalarini tarjima qiling.

صَفٌّ نَيْرٌ. غُرْفَةٌ كَبِيرَةٌ. خِرَازَانَةٌ جَدِيدَةٌ. بَابٌ
قَدِيمٌ. جِدَارٌ أَبْيَضٌ. مِصْبَاحٌ جَمِيلٌ. طَالِبٌ
نَشِيطٌ. لَوْحٌ أَسْوَدٌ. صُورَةٌ صَغِيرَةٌ. كِتَابٌ
مُمْتَعٌ. قَلَمٌ أَحْمَرٌ. مُسْكَةٌ سَوْدَاءٌ. نَافِذَةٌ خَشَبِيَّةٌ.
سَبُّورَةٌ بَيْضَاءٌ. بَيْتٌ بَارِدٌ. مَكْتَبَةٌ قَرِيبَةٌ.
دَرْسٌ سَهْلٌ. بَابٌ أَزْرَقٌ. كُرْسِيٌّ أَخْضَرٌ.

6-topshiriq. Aniq holatda berilgan moslashgan aniqlovchilarni ifodali o‘qing va tarjima qiling.

الصَّفُّ النَّيِّرُ. الْغُرْفَةُ الْكَبِيرَةُ. الْخِرَازَانَةُ الْجَدِيدَةُ.
الْبَابُ الْقَدِيمُ. الْجِدَارُ الْأَبْيَضُ. الْمِصْبَاحُ الْجَمِيلُ.
اللَّوْحُ الْأَسْوَدُ. الصُّورَةُ الصَّغِيرَةُ. الْكِتَابُ
الْمُمْتَعُ. الْقَلَمُ الْأَحْمَرُ. الْمُسْكَةُ السَّوْدَاءُ. النَّافِذَةُ
الْخَشَبِيَّةُ. السَّبُّورَةُ الْبَيْضَاءُ. الْبَيْتُ الْبَارِدُ. الْمَكْتَبَةُ
الْقَرِيبَةُ. الدَّرْسُ السَّهْلُ. الْبَابُ الْأَزْرَقُ.
الْكُرْسِيُّ الْأَخْضَرُ.

7-topshiriq. 4-topshiriqda berilgan moslashgan aniqlovchilarni namuna asosida ikkilik va ko‘plikda bering.

<i>ko‘plik</i>	<i>ikkilik</i>	<i>birlik</i>
صُفُوفٌ نَيْرَةٌ	صَفَّانِ نَيْرَانِ	صَفٌّ نَيْرٌ
<i>yorug‘ sinflar</i>	<i>ikkita yorug‘ sinf</i>	<i>yorug‘ sinf</i>

Eslatma: Oxiri hamza belgisi bilan tugaydigan so‘zlardan ikkilik yasalganda, [a:ni] ikkilik qo‘shimchasi qo‘shishdan oldin **hamza belgisi va:v harfiga** o‘zgartiriladi. Masalan:

<i>ikkilik</i>		<i>birlik</i>
مُسْكَتَانِ سَوْدَاوَانِ <i>ikkita qora ruchka</i>	←	مُسْكَةٌ سَوْدَاءُ <i>qora ruchka</i>
صَحْرَاوَانِ <i>ikkita sahro, ikkita cho‘l</i>	←	صَحْرَاءُ <i>sahro, cho‘l</i>






8-topshiriq. Rangni ifodalovchi sifatlar aniqlovchi vazifasida kelgan quyidagi so‘z birikmalarini tarjima qiling, ularni ikkilik va ko‘plikda bering.

Qizil kitob, qizil ruchka, yashil daftar, yashil chizg‘ich, qora doska, oq doska, sariq stul, jigarrang eshik, jigarrang soyabon, pushti xona, kulrang stol, kulrang uy, siyohrang shkaf, ko‘k qalam, yashil qishloq, ko‘k mehmonxona, ko‘k surat, yashil bozor, qora daftar, qizil qalam, siyohrang eshik.

Katta rahmat	←	شُكْرًا جَزِيلًا
--------------	---	------------------

9-topshiriq. Berilgan rasm va ranglardan foydalangan holda namunada ko‘rsatilgandek noaniq va aniq holatda moslashgan aniqlovchi tuzing. Ularning ikkilik va ko‘plik shaklini og‘zaki mashq qiling.

namuna	<i>Qora mashina.</i>	سَيَّارَةٌ سَوْدَاءُ.
		السَّيَّارَةُ السَّوْدَاءُ.

			
yashil	olovrang	pushti	jigarrang
			
qora	oq	sariq	ko‘k
			
jigarrang	qizil	kulrang	yashil

14-DARS

BIRIKMA OLMOSHLARI

Arab tilidagi birikma olmoshlari o‘zbek tilidagi egalik qo‘shimchalaridir. Xuddi o‘zbek tilidagidek, arab tilida ham birikma olmoshlari so‘zning oxiriga qo‘shiladigan qo‘shimchalar hisoblanadi.

BIRLIK				
أَنَا	أَنْتَ	أَنْتِ	هُوَ	هِيَ
يَ	كَ	كِ	هُ	هَا
كِتَابِي	كِتَابُكَ	كِتَابُكِ	كِتَابُهُ	كِتَابُهَا
(mening) kitobim	(sening) kitobing		(uning) kitobi	

IKKILIK		
نَحْنُ	أَنْتُمَا	هُمَا
نَا	كُمَا	هُمَا
كِتَابُنَا	كِتَابُكُمَا	كِتَابُهُمَا
(biz ikkimizning) kitobimiz	(siz ikkingizning) kitobingiz	(ular ikkising) kitobi

KO‘PLIK				
نَحْنُ	أَنْتُمْ	أَنْتُنَّ	هُمْ	هُنَّ
نَا	كُم	كُنَّ	هُمْ	هُنَّ
كِتَابُنَا	كِتَابُكُمْ	كِتَابُكُنَّ	كِتَابُهُمْ	كِتَابُهُنَّ
(bizning) kitobimiz	(sizning) kitobingiz		(ularning) kitobi	

Ma'lumki, arab tilida birikma olmoshlarini olgan soʻzlar aniq holatdagi soʻzlar hisoblanadi. Demak, **birikma olmoshlari qoʻshilgan soʻzlar hech qachon “al” aniqlik artiklini olmaydi.**

1-topshiriq. Soʻzlarga namunada koʻrsatilgandek, birikma olmoshlarini qoʻshib yozing va tarjima qiling.

<i>do'stim</i>	صَدِيقٌ + ى = صَدِيقِى
	جَامِعَةٌ + نَا =
	صَفٌّ + كُمْ =
	طَالِبٌ + كِ =
	صُورَةٌ + هُ =
	مُعَلِّمٌ + هُمَا =
	مِصْبَاحٌ + هَا =
	مِنْضَدَةٌ + كَ =
	زَمِيلٌ + هُمْ =

2-topshiriq. مَنْ va مَا so‘roq olmoshlari bilan tuzilgan quyidagi savollarni o‘qing, tarjima qiling va savollarga javob bering. Javob berishda davlat nomlaridan yasalgan nisbiy sifatlardan foydalaning. Birikma olmoshlariga e’tibor bering.

savol	javob
الْجَوَابُ	السُّؤَالُ
إِسْمِي مَحْمُودٌ.	مَا أَسْمُكَ؟
...	مَنْ صَدِيقُكَ؟
...	مَا جِنْسِيَّتُهَا؟
...	مَنْ صَدِيقُكَ؟
...	مَا جِنْسِيَّتُهُ؟
...	مَنْ جَارُكَ؟
...	مَنْ أَنْتَ؟
...	مَا جِنْسِيَّتُكَ؟
...	مَنْ صَدِيقُكَ؟

Arzimaydi



لَا شُكْرَ عَلَى الْوَاجِبِ

15-DARS

OT KESIMLI GAP

1-qoida



Ot-kesimli gaplarda
ega oldin, kesim
keyin keladi.

2-qoida



Ega aniq holatda,
kesim noaniq
holatda bo'ladi.

3-qoida



Ega va kesim
jins va sonda
moslashadi.

Xona – yorug'.



الْغُرْفَةُ نَيْرَةٌ.

Kitob – foydali.



الْكِتَابُ مُفِيدٌ.

Ruchka – qizil.



الْمُسْكَةُ حَمْرَاءُ.

Talaba – faol.



الطَّالِبُ نَشِيطٌ.

Dars – qiyin.



الدَّرْسُ صَعْبٌ.

O'qituvchi -kuchli.



الْمُدَرِّسُ قَوِيٌّ.

Ikki eshik - ochiq.



الْبَابَانِ مَفْتُوحَانِ.

كَلِمَاتٌ جَدِيدَةٌ

<i>davlat(lar)</i>	دَوْلَةٌ (دَوْلٌ)
<i>shahar(lar)</i>	مَدِينَةٌ (مَدْنٌ)
<i>qishloq(lar)</i>	قَرْيَةٌ (قَرْىٌ)
<i>gazeta(lar)</i>	جَرِيدَةٌ (جَرَائِدٌ)
<i>jurnal(lar)</i>	مَجَلَّةٌ (مَجَلَّاتٌ)
<i>shkaf(lar)</i>	خِزَانَةٌ (خَزَائِنٌ)
<i>stol(lar)</i>	طَاوِلَةٌ (طَاوِلَاتٌ)
<i>soat(lar)</i>	سَاعَةٌ (سَاعَاتٌ)
<i>o'chirg'ich(lar)</i>	مَسَاحَةٌ (مَسَاحَاتٌ)
<i>daraxt(lar)</i>	شَجَرَةٌ (أَشْجَارٌ)
<i>stul(lar)</i>	كُرْسِيٌّ (كِرَاسِيٌّ)
<i>deraza(lar)</i>	نَافِذَةٌ (نَوَافِذٌ)

ESLATMA






**Birikma olmoshlarini olgan soʻz
aniq holatda hisoblanadi.
Shuning uchun birikma olmoshlari
bilan tugaydigan soʻzlar “al” aniqlik
artiklini olmaydi.**

1-topshiriq. Topshiriqni namunada koʻrsatilganidek bajaring.

<i>Men talabaman.</i>	أَنَا طَالِبَةٌ.
<i>Bobom ...</i>	جَدِّي مُؤَرِّخٌ.
<i>Buvim ...</i>	جَدَّتِي مُعَلِّمَةٌ.
<i>Otam ...</i>	أَبِي مُدِيرٌ.
<i>Onam ...</i>	أُمِّي مُدَرِّسَةٌ.
<i>Akam ...</i>	أَخِي طَالِبٌ.
<i>Singlim ...</i>	أُخْتِي تَلْمِيزَةٌ.
<i>Togʻam ...</i>	خَالِي مُحَاسِبٌ.
<i>Xolam ...</i>	خَالَتِي خَيَّاطَةٌ.
<i>Amakim ...</i>	عَمِّي نَجَّارٌ.
<i>Ammam ...</i>	عَمَّتِي طَبَّاخَةٌ.

2-topshiriq. Berilgan rasm va ranglardan foydalangan holda namunada ko'rsatilgandek ot-kesimli gaplar tuzing.

namuna	<i>Mashina qora.</i>	السَّيَّارَةُ سَوْدَاءُ.
	<i>Mening mashinam qora.</i>	سَيَّارَتِي سَوْدَاءُ.

			
yashil	olovrang	pushti	jigarrang
			
qora	oq	sariq	ko'k
			
jigarrang	qizil	kulrang	yashil

3-topshiriq. Moslashgan aniqlovchi va ot kesimli gaplarni tez o‘qishni mashq qiling, tarjimalarni bering.

ot-kesimli gap	moslashgan aniqlovchi	
	aniq holatda	noaniq holatda
اَلْكِتَابُ عَرَبِيٌّ	اَلْكِتَابُ الْعَرَبِيُّ	كِتَابٌ عَرَبِيٌّ
<i>Kitob arabchadir.</i>	<i>arabcha kitob</i>	
اَلْمَدِينَةُ شَرْقِيَّةٌ	اَلْمَدِينَةُ الشَّرْقِيَّةُ	مَدِينَةٌ شَرْقِيَّةٌ
الدَّوْلَةُ جَنُوبِيَّةٌ	الدَّوْلَةُ الْجَنُوبِيَّةُ	دَوْلَةٌ جَنُوبِيَّةٌ
الصُّورَةُ قَدِيمَةٌ	الصُّورَةُ الْقَدِيمَةُ	صُورَةٌ قَدِيمَةٌ
الصَّفُّ وَاسِعٌ	الصَّفُّ الْوَاسِعُ	صَفٌّ وَاسِعٌ
اَلْبَيْتُ جَمِيلٌ	اَلْبَيْتُ الْجَمِيلُ	بَيْتٌ جَمِيلٌ
اَلْجَرِيدَةُ فَارِسِيَّةٌ	اَلْجَرِيدَةُ الْفَارِسِيَّةُ	جَرِيدَةٌ فَارِسِيَّةٌ
اَلْمِصْبَاحُ نَيِّرٌ	اَلْمِصْبَاحُ النَّيِّرُ	مِصْبَاحٌ نَيِّرٌ
اَلْمَجَلَّةُ اِنْجِلِيزِيَّةٌ	اَلْمَجَلَّةُ الْاِنْجِلِيزِيَّةُ	مَجَلَّةٌ اِنْجِلِيزِيَّةٌ
اَلطَّائِلَةُ نَظِيْفَةٌ	اَلطَّائِلَةُ النَّظِيْفَةُ	طَائِلَةٌ نَظِيْفَةٌ

سَاعَةٌ ذَهَبِيَّةٌ	السَّاعَةُ الذَّهَبِيَّةُ	السَّاعَةُ ذَهَبِيَّةٌ
خِزَانَةٌ خَشَبِيَّةٌ	الْخِزَانَةُ الْخَشَبِيَّةُ	الْخِزَانَةُ خَشَبِيَّةٌ
مَسَاحَةٌ قَدِيمَةٌ	الْمَسَاحَةُ الْقَدِيمَةُ	الْمَسَاحَةُ قَدِيمَةٌ

4-topshiriq. Ot kesimli gaplarni o‘qing va tarjima qiling.

الصَّفُّ نَيِّرٌ. الْغُرْفَةُ كَبِيرَةٌ. الْخِزَانَةُ جَدِيدَةٌ.
 الْبَابُ قَدِيمٌ. الْهَاتِفُ أَبْيَضٌ. الْمِصْبَاحُ جَمِيلٌ.
 السَّرِيرُ أَسْوَدٌ. الصُّورَةُ صَغِيرَةٌ. الْكِتَابُ مُمْتَعٌ.
 الْقَلَمُ أَحْمَرٌ. الْمُسْكَةُ سَوْدَاءُ. النَّافِذَةُ خَشَبِيَّةٌ.
 السَّبُّورَةُ بَيْضَاءُ. الْبَيْتُ بَارِدٌ. الْمَكْتَبَةُ قَرِيبَةٌ.
 الدَّرْسُ سَهْلٌ. الْبَابُ أَزْرَقُ. الْكُرْسِيُّ أَخْضَرُ.

5-topshiriq. Ot kesimli gaplarni tarjima qiling.

Uy – sovuq. Xona – tor. do‘stim – tirishqoq. Ustozimiz – kuchli.
 Darslar – oson. Krovat – yangi. Gazetalar – eski.
 Shahar – chiroyli. Davlatlar- katta. Jurnal – qiziqarli.
 Shkaflar – jigarrang. Quyonlar – kulrang. Telefonim – yangi.
 Stol – katta. o‘chirg‘ichim – toza. Ruchkalar - ko‘k.
 Qalamlar – yashil. Derazalar – ochiq. Eshik – yopiq.
 Doska – toza. Auditoriyamiz – kichkina. Shahrimiz – yangi.
 Qishloq – uzoq. Daryolar- uzun. Mehmonxona – yangi.
 (Uning) xonasi – toza. (Sening) qishlog‘ing – yaqin.
 Tikuvchi – mohir. Yozuvchi – suriyalik. Onam – oshpaz.

6-topshiriq. Berilgan ot-kesimlarni namunadagidek egaga moslashtirgan holda tarjima qiling. Hosil bo'lgan ot-kesimli gaplarni o'zbek tiliga o'giring.

kesim	ega
<i>qiziqarli</i>	هَذِهِ الْكُتُبُ
<i>chiroyli</i>	تِلْكَ الْمَدُنُ
<i>tirishqoq</i>	هَاتَانِ الطَّالِبَتَانِ
<i>yog'och</i>	ذَلِكَ الْكُرْسِيُّ
<i>kichkina</i>	هَذِهِ الدُّوْلُ
<i>katta</i>	تِلْكَ الْقُرَى
<i>yopiq</i>	هَذِهِ النَّافِذَةُ
<i>tor</i>	هَذَا الْبَيْتُ
<i>uzun</i>	هَذَانِ النَّهْرَانِ
<i>toza</i>	ذَانِكَ الْفَصْلَانِ
<i>eski</i>	ذَلِكَ السُّوقُ

Harakat barakadir.



الْحَرَكَةُ بَرَكَةٌ.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Al-Qomus. Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at. I-II-III-IV jildlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017 – 2022.
2. Abdujabborov A. Arab tili. – T.: Toshkent islom universiteti, 2007.
3. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. I-II jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
4. Xalidov B.Z. Arab tili darsligi. – T.: Fan, 2007.
5. Hasanov M. Arab tili. – T.: Global books, 2019.

M U N D A R I J A

	Muqaddima.....	3
1-dars.	Arab alifbosi. Munfasil harflar.....	4
2-dars.	Unlilar.....	7
3-dars.	Belgilar.....	10
4-dars.	Muttasil harflar. Ba:, ta:, sa:, nu:n, ya: harflari.....	14
5-dars.	Si:n, shi:n, mi:m harflari.....	22
6-dars.	Ha: (hoye havvaz) harfi. Ta:marbuta harfi va jins kategoriyasi.....	29
7-dars.	Fa:, qo:f harflari. Ikkilik son kategoriyasi.....	39
8-dars.	Ji:m, ha:, xo: harflari. Kasb-korni anglatuvchi soʻzlar. Koʻplik. Kishilik olmoshlari.....	44
9-dars.	Ka:f, la:m harflari. Koʻrsatish olmoshlari.....	55
10-dars.	So:d, do:d, to:, zo:, 'ayn, g'ayn harflari. Hamza belgisi.....	64
11-dars.	Shamsiy va qamariy harflar. Holat kategoriyasi.....	73
12-dars.	Arab tilida oʻzak tushunchasi. Nooʻzak harflar. Soʻz vaznlari.....	80
13-dars.	Sifat. Moslashgan aniqlovchi.....	89
14-dars.	Birikma olmoshlari.....	104
15-dars.	Ot-kesimli gap.....	107
	Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....	114

SULAYMONOVA NIGORA

ARAB TILI
(I qism)

USLUBIY QO‘LLANMA

«IJOD NASHR»

Nashriyot litsenziyasi AA № 0050.

Toshkent sh. Yunusobod tumani, Sohibkor ko'chasi, 1-uy

Berilgan vaqti 05.04.2024

Bosishga 2024-yil 33-aprelda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 1/16 . Ofset bosma.

“Georgia” garniturası.

Nashriyot bosma tabog'i 8,0.

Adadi 100. Buyurtma raqami 12.